

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK (371,927)

Raxmatillayeva Gulnoza Shavkatovnaning

“Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini
logopedik ish tizimida shakllantirish”

Mutaxassislik: 5A 111901 – Logopediya

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Himoya qilishga ruxsat
Magistratura bo'limi boshlig'i
_____M.Esanov
2014 y «____»iyun

“Korreksion pedagogika ”
kafedrasi mudiri, p.f.n.,dots
_____ Sh.Amirsaidova
Ilmiy rahbar: p.f.n.,dots.
_____ Sh.Amirsaidova

Toshkent-2014 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

Fakultet: Defektologiya

Kafedra: Korrektsion pedagogika

O'quv yili: 2012-2014

Ilmiy rahbar: p.f.n., dots.
Sh.M.Amirsaidova

Magistratura talabasi:

Raxmatillaeva Gulnoza Shavkatovna

Mutaxassisligi: 5A111901

Logopediya

**“Nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarning eshituv nutqiy xotirasini logopedik
ish tizimida shakllantirish” nomli**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: O’zbekiston Respublikasida L.R.Mo’minova, E.A. Babaeva, M.Yu. Ayupova va X.M. Po’latovalar tomonidan nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarni kelib chiqish sabablari, leksik, grammatik, fonetik – fonematik tomondan nutqning rivojlanmasligi va korreksion – pedagogik tuzatish ishlarini, usullari va ahamiyati o’rganilgan. O’zbekistonda nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Bu muammo buyicha o’zbek tilida manbalar etarli emas. Muammo bo’yicha pedagogik – psixologik metodik manbalarda o’rganilmaganligi uchun biz ushbu mavzuni dolzarb muammolardan biri deb belgiladik.

Tadqiqotning maqsadi:

Nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotira xususiyatlarini o’rganish va logopedik ish tizimida shakllantirish bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Maktabgacha yoshdagi nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasining rivojlanmaganligining sabablarini aniqlash.
2. Maktabgacha yoshdagi nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotira xususiyatlari holatini o’rganish va tahlil qilish
3. Maktabgacha yoshdagi nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti:

Ixtisoslashgan maktabgacha ta’lim muassasasidagi 5-6 yoshlik nutqi to’liq rivojlanmagan bolalar.

Tadqiqotning predmeti:

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotira xususiyatlarini logopedik ish tizimida shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning metodologik asosini:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatning Qo'shma Majlisidagi ma'ruzasi: «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi (2010 yil); O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1997 yil), «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Maxsus ta'lim kontseptsiyasi», «Bolalarni ximoya qilish Konventsiyasi», «Milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasi», «Ma'naviyat haqidagi g'oyalari», Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlari. Prezident qarorlari, sharq mutafakirlarining ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash, komil insonni tarbiyalash haqidagi falsafiy, ahloqiy qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat Dasturlari, I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasiga oid asarlari va nutqlari, Sharq mutafakkirlarining bolani jismonan va ruhan tarbiyalash haqidagi asarlari L.S. Vo'gotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning namoyon bo'lishi haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, defektologik va metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- bolalarning psixologik jarayonlarini tekshirish (sinov eksperiment);
- maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari reja-xisobot xujjatlari va tarbiyalanuvchilarning tibbiy pedagogik xujjatlarini o'rganish, bolalar, logopedlar, tarbiyachilar xamda ota-onalari bilan yakka suhbatlar o'tkazish;
- pedagogik jarayonni kuzatish va taxlil qilish;
- maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda aniqlovchi eksperiment o'tkazish va ularni miqdor va son jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:

- Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan o'tkaziladigan korrektsion ish jarayonida bolalar eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish pedagogik muammo sifatida maxsus pedagogika nazariyasida bir butun, yaxlit xolatda tadbiq etildi;

- Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar psixologik jarayonlarini mukammal tekshirish, xamda psixologik jarayonlaridagi kamchiliklarni korrektsiyalash tushunchasi pedagogik iste'molga kiritilib, uning mazmuni mohiyati va funktsiyalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi;

Ishning tuzilishi va tarkibi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, hulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots. Sh.M.Amirsaidova

Magistratura talabasi:

G.Sh.Raxmatillayeva

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

Faculty: Defectology

Master student: Raxmatillayeva

Department: Corrective pedagogics

Gulnoza Shavkatovna

Academic year: 2012-2014

Specialty: 5A111901-Logopeadics

Scientific supervisor: p.h.d., Sh.M.

Amirsaidova

ANNOTATION

of the master student dissertation on the theme:

**“Formation of listening speech memory of non-completely developed speech
of the children in systematic logopeadic work”**

Topicality of the theme: L. R. Muminova, E. A. Babayeva, M Yu. Ayupova and H. M. Pulatova investigated the causes of incomplete developed speech in children, non-development of speech on the side of lexics, grammatic, phonetic-phonematic and the ways and significance of researches on corrective pedagogics in the Republic of Uzbekistan. There were not researches on the formation of listening speech memory of non-completely developed speech of the children in systematic logopeadic work in Uzbekistan. Sources on this theme is not sufficient in Uzbek language. The problem is vital because it was not determined in the pedagogical-psychological sources.

Aim of the research: to study peculiarities of listening speech memory of non-completely developed speech of the children and research methodic recommendations on the formation logopeadic work systematically.

Tasks of the work:

1. Clarify causes of non-development of listening memory of the incomplete developed speech in pre-school children.

2. To study and analyze peculiarities of listening speech memory of non-completely developed speech of the children.

3. To research methodic recommendation on the listening memory of non-completely developed speech of the children.

Object of the research:

5-6-years old children in the specialized pre-school educational establishment.

Subject of the research: The process of the logopedic work on the formation of listening speech memory of non-completely developed speech of the children in systematically.

Methodological principles of the research: The report of president of the Republic of Uzbekistan in the “Oliy Majlis”: “Barkamol Avlod Yili” Davlat dasturi”; The Constituion of the Republic of Uzbekistan; O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni (1997); “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi; “Maxsus ta`lim konsepsiyasi”, :Bolalarni himoya qilish konvensitasi”, “Milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasi”, “Ma`naviyat haqidagi g`oyalari”,protocols accepted by “Vazirlar Mahkamasi”.Resolutions of President, moral and national self-awareness , ethical and philosophical outlook about bringing up perfect person of the eastern scholars,state protocols accepted by “Vazirlar Mahkamasi”, speech and novel of I. A. Karimov about bringind up perkect generation, the novels of eastern scholars about bringing up a child phusically and morally,the instrucation of appearance of primary and secondary defects by L. S.Vigotskiy

While investigating the research work there have been used following methods:

1. To analyze pedagogic, psychological, defectological and methodic sources according to the theme.

2. To examine psychological process of the children(experiment)

3. To study plan-account documents of specialized pre-school establishments and medical-pedagogical documents of pupils, to hold conversations with children, logopeads, trainers and parents.

4. To observe and analyze pedagogic process.

5. To hold determining experiment on the children with non-completely developed speech and analyze their quantity.

The novelty and theoretical value of the research:

1. Formation of listening speech memory of the children in systematic logopedic work of specialized pre-school children with non-completely developed speech during the corrective process studied as a pedagogical problem in specialized pedagogic theory as a whole and entire state.

2. To examine psychological processes of specialized pre-school children with non-completely developed speech completely and there was begun the usage of the notion of correcting defects in the process of psychology and its content, functions illustrated from the scientific-pedagogical point of view.

Structure of the research: dissertation of the MD consists of introduction, three chapters, conclusion and the list of used literature.

Scientific supervisor:

p.h.d.dots.Sh.M. Amirsaidova

Master student:

G.Sh.Raxmatillayeva

Mundarija

Kirish.....	3
I Bob. Maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy nuqsonlarini ilmiy-nazariy tahlili	14
1. Bolalardagi nutqiy rivojlanishning buzilishlari. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi fenomen.....	14
2. Nutqning normal va nuqsonli rivojlanishida nutq va kognitiv funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi.....	17
3. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar xotira faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.....	22
I Bob bo‘yicha xulosa.....	33
II Bob. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqiy xotirasining o‘ziga xos xususiyatlari.....	34
1. Tadqiqot va uni tashkil etish metodikasi.....	34
2. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni tibbiy, psixologik, pedagogik hujjatlarini o‘rganish va ularning natijalari.....	41
3. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini bog‘langan nutq asosida tekshirish.....	43
4. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni ta’kidlovchi eksperiment natijalarining tahlili.....	45
II Bob bo‘yicha xulosa.....	55
III Bob. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish.....	57
1. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish jarayonida shakllantirish metodikasi.....	57
2. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni nutqiy xotirasini shakllantirish.....	68
3. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni nutqiy xotirasini shakllantirish natijalari.....	74

4. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini shakllantirishga doir metodik tavsiyalar.....	77
III Bob bo'yicha xulosa.....	84
Umumiy xulosalar.....	86
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	89

Kirish

Tadqiqot dolzarbligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish zamonaviy logopediyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu katta amaliy ahamiyat kasb etadi: nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni erta aniqlash va o'z vaqtida amalga oshirilgan korreksion ish bolalarning ona tilini o'zlashtirishda ortda qolishlarini oldini olish va bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur sohada tadqiqot ishlarini olib borish qator omillar bilan shartlanadi. Ulardan biri bizning fikrimizcha, eng muhimi – ta'limning maktab dasturini o'zlashtirish uchun tayyorlov ishlari muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, ta'lim sohasini bosqichma–bosqich isloh qilish ishiga katta e'tibor berilmoqda. Har tomonlama rivojlangan, ongli barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki, yurtimizning ertangi kuni bugungi yoshlar qo'lidadir. Shuning uchun sog'lom, ongli, bilimdon, dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalash vazifasi Davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: “Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir”.¹

“Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodiy rivojlanibgina emas, bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qildirishi lozim.

Prizidentimiz tomonidan 2010 yil “Barkamol avlod yili “, 2012 yil “Mustaxkam oila yili”, 2013 yil “Obod turmush yili”, 2014 yil “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilinishi o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama kamol topishi kelajakda Ona-vatanga o'ziga xizmat qiladigan sog'lom intellektual farzand

¹ I.A.Karimov «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: “O'zbekiston”, 1998 yil 26-bet

tarbiyasini komolotidir. Sogʻlom farzandni dunyoga keltirish uni tarbiyalash ota-onaning sharaflı burchidir.

Mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning oʻz ijodiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga toʻliq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish boʻyicha keng koʻlamli aniq yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari” risolasida: “...bir-biri bilan chambarchas bogʻliq keng koʻlamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish”² degan fikrlari barcha sohaga tegishlidir.

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohatlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblangan taʼlimni yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik gʻoyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qoʻymoqda.

Maktab, maktabgacha taʼlim muassasalarida tarbiyalanuvchi har bir bolani zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs boʻlib, jamiyat ishlarida faol qatnashishida nutqning toʻgʻri rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki, nutq-bu kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir.

Shu bois har bir insonni nutqni puxta egallashga, oʻz fikrini toʻliq ifoda etishga oʻrgatish lozim.

Turli jismoniy nuqsonlarga ega boʻlgan bolalarning taʼlim-tarbiyasiga boʻlgan eʼtibor hozirgi kunda, har doimgidan ham kuchli eʼtibor berilmoqda.

² I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. T.: “Oʻzbekiston”, 2009, 41bet

Aqliy taraqqiyot masalasi, shaxslarning psixologik xususiyatlarini o'rganish muammosi uzoq yillik tarixga ega.

Turli yoshdagi shaxslarning aqliy, jismoniy va ma'naviy rivojlanish xususiyatlari kishilik jamiyatining turli davrlarda o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shaxs kamolotida turli rivojlanish bosqichlari o'ziga xos o'rinlarni egallaydi. Insonning aqliy rivojlanishida, shaxs bo'lib shakllanishida, subyekt bo'lib o'zini namoyon qilishida maktabgacha yoshdagi davr alohida, muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonuniyat nafaqat aqlan va jismonan sog'lom shaxslarga balki, o'zlarining turli rivojlanish bosqichlarida turli kasalliklarni boshidan kechirishlari oqibatida ma'lum nuqsonlarga ega bo'lgan shaxslarga ham tegishlidir.

“Davlatimiz va kelajagimizning bugungi kuni, ayniqsa kelajagi uchun g'oyatda muxim bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o'z oldimizga ko'yar ekanmiz, avvalom bor biz yashayotgan, XXI-asr intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etadigan, aynan shu qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr, degan xayotiy xaqiqatdan kelib chiqqan edik”³.

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha yer yuzasidagi aholining 1-3 %ni turli aqliy va jismoniy kamchilikka ega shaxslar tashkil etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar qatori maxsus ta'limga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Buni biz turli hukumat qarorlarida, dasturlarida ko'rishimiz mumkin. Bolalar inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida, boshqa halqaro qonun va xujjatlarda ko'rsatilgan hamma huquq va erkinliklardan foydalanadilar.

Bolalarda ma'naviy, ruhiy, jismoniy, akliy rivojlanishiga muvofiq keladigan hayot darajalariga ega bo'lish huquqlari mavjud “Bola huquqlari haqidagi Konvensiya”ning 31 moddasida shunday deyilgan: “Bolalar dam olish, o'ynash va badiiy tadbirlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar”⁴. Bolalarni ijodiy faoliyatga

³ I.A.Karimov “Mamlakatimizni modernizatsiya kilish yulini izchil davom ettirish tarakkiyotimizning muhim omilidir”. T.: “Ma'naviyat” gazetasi, 2012.

⁴ O.Hasanboyeva va b. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2010, 248-bet

yo‘naltirishda ularning qiziqishlarini hisobga olib, ko‘maklashishlari lozim. Bolalarning istak, hoxish va qiziqishlariga qarab suhbatlar, uchrashuvlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Sog‘lom bolalar bilan bir qatorda nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar ham to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 23-moddasida shunday yozilgan: “Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim-tarbiya muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish o‘talarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik – tibbiy – pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining o‘quvchilari qisman yoki to‘la davlat ta‘minotida bo‘ladi”⁵.

Ta‘lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish darkor. Dunyoqarashi keng, sog‘lom ongli insonni tarbiyalash uchun sog‘lom tafakkurni shakllantirish zarur. Mamlakatimizning jahondagi rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun yoshlarimiz chuqur nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikma-malakalarini ham egallagan bo‘lishlari lozim.

Har qanday bilim, ko‘nikma, malakalar, ayniqsa, inson tafakkuri va xotirasi bolalik davrida jadallik bilan rivojlanadi. Demak, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning ruhiy rivojlanish imkoniyatlarini to‘g‘ri tarkib toptirish, zarur vaqtda, alohida yordamga muxtoj bolalarga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Ma‘lumki, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda xotira xususan eshituv xotirasi kamchiliklari uchraydi. Bunday bolalarning lug‘atlari kambag‘al bo‘ladi. Ularni maktabga tayyorlashda psixologlar bilan bir qatorda logopedlarning ham o‘rni beqiyosdir. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotira xususiyatlarini o‘z vaqtida aniqlash tibbiyot xodimlari, pedagog-psixolog va defektologlarning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada mamlakatimizda tashkil

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997, 23- modda.

etilgan Tashxis markazlarining faoliyati ibratli bo'lishi kerak. Chunki bu muammo ilmiy jihatdan to'liq tahlil etilmagan muammolardan biri sanaladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasining shakllanmaganligiga turli kasalliklar sabab bo'ladi.

Maxsus pedagogik, psixologik yordamsiz nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar 6 yoshda ba'zan 7 yoshda ham maktab ta'limiga tayyor bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning xotirasini rivojlanmaganligi ularni maktabga tayyorlashdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning xotirasining rivojlanmay qolishiga bolaning ruhiy rivojlanishining orqada qolganligi, bee'tiborlik, pedagogik qarovsizlik yohud bola salomatligining zaifligi sabab bo'lishi mumkin. Bolalarda xotirani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning xotirasining rivojlanmaganligi sababli maktab ta'limiga tayyor hisoblanmaydi, maktabda ham o'quv materialini yaxshi o'zlashtira olmaydi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning xotirasini rivojlantirishda mutaxassis psixolog logopedlarning o'рни muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan psixologik metodikalar va to'g'ri tashkil etilgan logopedik ish tizimi orqali nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning xotirasini shakllantirishimiz mumkin.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalari bor ota-onalar va ular tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan pedagoglar, psixologlar boladagi bu nuqsonni bartaraf etish uchun erta yoshdanoq logopedik ish tizimini tashkil etishsa, ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi yanada oshishi mumkin.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimida yangi davrning boshlanganligidan darak beradi. Ushbu hujjatlardan bayon qilingan fikr-mulohazalar va talablarni amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya tizimi, turli xil logopedik ish tiziminining barcha bo'g'inlari samarali va sermahsul faoliyat ko'rsatmoqlari talab qilinadi, shu jumladan logopediya fanida ham.

Atoqli psixolog olim L.S. Vigotskiy ruhiy jarayonlardan biri bo'lgan nutqni shunday ta'riflagan. "Nutq xabar, ijtimoiy aloqa, atrofdagilarga ta'sir funksiyasini bajarish bilan birga inson fikrini shakllantiradigan usullardan biridir"⁶.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Nutqning faol ishtiroki tufayli inson tevarak - atrof, borliq haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga nutq bolaning rivojlanishida, uning ta'lim tarbiya olishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan nuqsonlardan biri nutqning to'liq rivojlanmasligidir. Bunday nutq kamchiligiga uchragan bolalar nutqi o'ziga xosligi bilan boshqa nutq kamchiliklardan farq qiladi. Ushbu nutq buzilishlari bilan shug'ullangan chet el va rus olimlari nutq buzilishlarini turli yo'nalishlarda ko'rib chiqqanlar. Psixologik- pedagogik tomondan R.Ye. Levina; psixologik – lingivistik tomondan V.K. Orfinskaya, Ye.F. Sobotovich, V.A. Kovshikov; tibbiy – pedagogik tomondan S.S. Lyapidevskiy; Ye.M. Mastyukova va boshqalar o'rganganlar.

O'zbekiston Respublikasida nutq kamchiliklarini kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish usullari yuzasidan L.R. Mo'minova 1991 y. o'z tadqiqotlarida "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishning korreksion-pedagogik asoslari"ni ⁷ ishlab chiqdilar. M.Y. Ayupova (1992 y.) "Maktabgacha tarbiya yoshidagi o'zbek bolalarida fonetik-fonematik kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari" X.M. Po'latova (1994 y.) "Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutq faoliyatini faollashtirish"⁸; Ye.A. Babayeva (1991 y.) Nutqining to'liq rivojlanmasligini blingivizm ya'ni ikki tillilik asosida kelib chiqishini o'z tadqiqotlarida asoslab berganlar.

⁶ Л.С. Выготский Проблемы дефектологии. М.: "Просвещение", 1995. 527с.

⁷ L.R. Mo'minova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etishning korreksion-pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 1991. -56 b.

⁸ X.M. Po'latova Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutq faoliyatini faollashtirish: Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 1991. -60 b.

L.K.Nazarova va V.G.Ananyev fonematik tasavvur deganda, nutq jarayonida ifodalangan fonemalarni farqlay olish qobiliyatini tushunadilar.

M.Y. Ayupova, L.R. Mo‘minovalar eshituvni perseptiv funksiya deb, faqat nutq tovushlarini idrok etishni nazarda tutadi, qolgan qobiliyatlarni tovushlarni farqlash, ularni tovush guruhchalariga birlashtirish, tovush tahlili ko‘nikmasi rivojlangan fonematik eshituv okibati bo‘lib, maqsadga qaratilgan talim jarayonida shakllanadi degan fikrni ilgari suradilar.

F.A.Soxin nutqiy eshituvni tahlil kilar ekan, eshituv diqqati va fonematik eshituvni farqlaydi.

Fonematik eshitish va nutq-harakat analizatorlarining izchil rivojlanishi bola nutkining 2-signal sistemasini tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda uchraydigan xotira muammosini ontogenez jarayonida nutq va xotiraning o‘zaro mutanosibligi, bola bilish faoliyati va xotirasining rivojlanish jarayonlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Biz maxsus adabiyotlarni tahlil etish jarayonida nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning xotirasini shakllantirish bo‘yicha ko‘pgina rus olimlari, jumladan, T.B.Filicheva, T.V.Chirkina, P.E.Levina, V.K.Orfinskaya, Ye.M.Mastyukova, T.I.Vlasenko, A.A.Leontyev, S.N.Shaxovskaya, V.K.Vorobyeva, O.N.Usanova, L.F. Spirova, G.S.Gumennaya, O.V.Troshin, T.N.Sinyakova va N.A.Nikashinalarning olib borgan ilmiy ishlarini tahlil qildik.

Ilmiy tadqiqotlar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekistonda nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Bu muammo buyicha o‘zbek tilida manbalar yetarli emas. Shuning uchun biz ushbu mavzuni dolzarb muammolardan biri deb belgiladik. Muammoning O‘zbekistonda ilmiy jihatdan o‘rganilmaganligidan kelib chiqqan holda, “Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish” tadqiqot mavzusi sifatida tanlandi.

Tadqiqotning obyekti:

Ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasidagi 5-6 yoshlik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar.

Tadqiqotning predmeti:

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotira xususiyatlarini logopedik ish tizimida shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning bazasi: Toshkent shahri Chilonzor tumani Xalq ta'limi muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi "Marvarid" nomli 368-sonli maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi.

Tadqiqotning maqsadi:

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotira xususiyatlarini o'rganish va logopedik ish tizimida shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

4. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasining rivojlanmaganligining sabablarini aniqlash;

5. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotira xususiyatlari holatini o'rganish va tahlil qilish;

6. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqining rivojlanganlik darajasini, intellektual holatini, ruxiy faoliyatlarining rivojlanganlik holatini hisobga olgan holda, eshituv xotirasini yakka va frontal mashgulotlarda shakllantirish bo'yicha differensiallashgan korreksion-logopedik ish tizimi tashkil etilsa, maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lardi. Chunki bunda:

1. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar o'z imkoniyatlari darajasida eshituv xotirani shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

2. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini shakllantirish logopedik ish tizimlari asosida amalga oshirilsa, logopedik mashg'ulotlar bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilsa, eshituv xotirani samarali shakllantirishni ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi, faraziga asoslangan holda biz ilmiy tadqiqot ishimizning vazifalarini belgilab oldik.

Tadqiqotning metodologik asosini:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatning Qo'shma Majlisidagi ma'ruzasi: «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi (2010 yil); O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil), "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Maxsus ta'lim konsepsiyasi", "Bolalarni ximoya qilish Konvensiyasi", «Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi», «Ma'naviyat haqidagi g'oyalari», Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlari. Prezident qarorlari, sharq mutafakirlarining ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash, komil insonni tarbiyalash haqidagi falsafiy, ahloqiy qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat Dasturlari, I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasiga oid asarlari va nutqlari, Sharq mutafakkirlarining bolani jismonan va ruhan tarbiyalash haqidagi asarlari L.S. Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning namoyon bo'lishi haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, defektologik va metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- bolalarning psixologik jarayonlarini tekshirish (sinov eksperiment);
- maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari reja-hisobot hujjatlari va tarbiyalanuvchilarning tibbiy pedagogik hujjatlarini o'rganish, bolalar, logopedlar, tarbiyachilar hamda ota-onalar bilan yakka suhbatlar o'tkazish;
- pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish;

- maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tadqiqot o'tkazish va ularni miqdor va son jihatdan tahlil etish.

Tadqiqot bosqichlari:

Ilmiy tadqiqot ishi uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda (2012-2013) muammoga doir pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar o'rganilib, mavzuning dolzarbligi, ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan asoslash. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini tekshirish uchun metodika tayyorlash. Ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyalanuvchi bolalari haqidagi hujjatlar, DTS dasturlarini o'rganish, logopedik mashg'ulotlar kuzatish, tahlil qilish. Ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasining logopedlari, psixologlari va tarbiyachilari bilan suhbat o'tkazildi.

Ikkinchi bosqichda (2013) tajriba sinov bosqichi bo'lib, psixologik tekshirish metodikalaridan foydalanib, maxsus bolalar bog'chasining 5-6 yoshli nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasining rivojlanmaganlik holati tekshirildi.

Uchinchi bosqichda (2013 -2014) o'tkazilgan tekshirish natijalari tahlil qilindi, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va magistrlik dissertatsiyasi shakliga keltirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:

- Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan o'tkaziladigan korreksion ish jarayonida bolalar eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish pedagogik muammo sifatida maxsus pedagogika nazariyasida bir butun, yaxlit holatda tadbiq etildi;

- Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar psixologik jarayonlarini mukammal tekshirish, hamda psixologik jarayonlaridagi kamchiliklarni korreksiyalash tushunchasi pedagogik iste'molga kiritilib, uning mazmuni mohiyati va funksiyalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Dissertatsiyaning natijalari va tadqiqot jarayonida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish bo'yicha ishlab

chikilgan metodik tavsiyalardan xalk ta'limi tizimining barcha maxsus va ommaviy muasasalarning logopedlari, maktab logopedlari, defektologiya fakulteti talabalari, amaliyotchi logopedlar manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi va asoslanganligi:

Qo'yilgan muammoni hal etishda kompleks va ilmiy metodik yondoshuvning to'g'riligi, ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni psixologik jixatdan o'rganilganligi, tadqiqotning barcha bosqichlaridagi vazifalarning bir biriga monandligi, ilgari surilgan nazariy va uslubiy xolatlarning pedagogik tajribada sinovdan o'tkazilganligi, xulosa chikarishda ilmiy xolislik, mantiqiylik, milliylik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillariga amal qilinganligi hamda o'rganilayotgan jarayonning mazmuniga nisbatan tanlangan metodlarining tajriba-sinov ishlari natijasi miqdor va sifat jihatdan tasdiqlanganligi bilan isbotlanadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda eshituv xotirasining buzilish xususiyatlari;
2. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda eshituv xotirasining o'ziga xos shakllanganligi;
3. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda eshituv xotirasini lopedik ish tizimida shakllantirishdagi differensial yondashuv;
4. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning eshituv xotirasini shakllantirish buyicha xulosalar, metodik tavsiyalar.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi kirish, III bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I bob. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy nuqsonlarini ilmiy-nazariy tahlili

1. Bolalardagi nutqiy rivojlanishning buzilishlari. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi fenomeni

Nutqning birlamchi rivojlanmaganligini ta'riflashga doir ko'pgina ilmiy ishlar mavjud bo'lib, ularning ko'rsatishicha u eshitish, intellekt nuqsonlari va boshqa tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lmay, o'zining mustaqil kelib chiqishiga ega. Biroq, hozirga qadar umum qabul qilingan ta'rif mavjud bo'lmay, uning mohiyati va mexanizmi haqidagi tasavvurlar xilma-xil.

Etio patogenetik nuqtai nazardan nutqi rivojlanmagan bolalar turli xildagi guruhlarini tashkil etadi. Ba'zi vaziyatlarda mazkur holat ko'pincha genetik tabiatga ega bo'lgan konstitusional xarakterga ega. Odatda bunday bolalardagi nuqsonning klinik manzarasi jiddiy psixopatologik belgilarga, ayniqsa psixooorganik belgilarga ega bo'lmaydi. Boshqa bir holatlarda zararlanish belgilari, ya'ni psixooorganik va boshqa psixopatologik belgilar yorqin namoyon bo'ladi.

So'nggi o'n yilliklar davomida ingliz-amerika ilmiy adabiyotlarida «specific language impairment» - SLI (tilning o'ziga xos buzilishi) terminini uchratish mumkin. Shu bois, tilning o'ziga xos buzilishi (SLI) bu nutqiy tizimning sekinlashgan rivojlanishi-mi (ya'ni yetilmaganlik holati) yoki uning patologik rivojlanishimi? - degan savol tug'iladi. G'arb adabiyotida mazkur muammoga doir ikki xildagi qarashlar mavjud. Tadqiqotchilarning bir guruhi tilning o'ziga xos buzilishini (SLI) rivojlanishning kechikishi, biroq mantiq va til imkoniyatlari shakllanishining qonuniyatlari nuqtai nazaridan normal rivojlanish sifatida tahlil etadilar (Leonard L. Miller 1979). Mualliflarning xulosalariga ko'ra nutqi rivojlanmagan bolalarda til egallashning shakllanishi tilning barcha bosqichlarida sekinlik bilan va bir vaqtning o'zida amalga oshadi. 1986 yilda R.Ye.Levina tahriri ostida chop etilgan “Osnovi teorii i praktiki logopedii”⁹ nomli monografiyada

⁹ Ayupova M.Y. Logopediya /Darslik/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2011 y. - 39 b.

bolalardagi nutqning rivojlanmaganligini o'rganishga bo'lgan psixologik-pedagogik yondashuvga asos solingan. R.Ye.Levina, N.A.Nikashina, L.F.Spirova, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina, S.N.Shaxovskaya, A.V.Yastrebovaning tadqiqotlarida fonetik rivojlanmaganlik (FR), fonetik-fonematik rivojlanmaganlik (FFR) va nutqning to'liq rivojlanmaganligi (Nutqi to'liq rivojlanmagan) singari nutqning rivojlanmaganlik shakllari ajratib ko'rsatilgan. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi nutqiy patologiya shunday shakli, bunda nutqiy tizimning barcha komponentlarining shakllanishi buzilgan bo'ladi. R.YE.Levinaning fikriga ko'ra, nutqning to'liq rivojlanmaganligi mexanizmiga ko'ra turlicha bo'lgan buzilishlar guruhining jamlanmasidir¹⁰.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi turli darajalarda namoyon bo'ladi. Avvalgi yuz yillikning 60-yillarida nutqiy rivojlanmaganlikning uch darajasi ta'riflangan.¹¹ 2000 yilda T.B.Filicheva nutqiy rivojlanishning IV darajasini ta'riflab bergan.

Nutqiy rivojlanishning I darajasi – umum qo'llaniladigan nutqning mavjud emasligi, jumlati nutqning (nutqsiz bolalar) mavjud emasligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur darajadagi bolalar muloqot uchun sodda so'zlardan, tovushlarga bo'lgan taqlid, maishiy mazmundagi alohida ot va fe'llardan, sodda gap bo'laklaridan foydalanib, ularning tovush tarkibi noaniq va turg'un emas. Bola o'z "bayoni"ni mimika va imo-ishora bilan mustahkamlaydi. Mazkur bolalar uchun muloqot jarayonidagi nutqiy izlanishga bo'lgan katta tashabbuskorlik va o'z nutqiga bo'lgan tanqidiy munosabat xarakterli.

Nutqiy rivojlanishning II darajasida – imo-ishora va sodda so'zlardan tashqari, buzilgan bo'lsada biroq doimiy umumqo'llaniladigan so'zlar paydo bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida ba'zi grammatik shakllar farqlana boradi. Biroq mazkur jarayon turg'un bo'lmagan xarakterga ega bo'lib, nutqning qo'pol

¹⁰ Ayupova M.Y. Logopediya /Darslik/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2011 y. - 40 b.

¹¹ Ayupova M.Y. Logopediya /Darslik/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2011 y. - 41 b.

rivojlanmaganligi mazkur bolalarda yorqin ifodalanadi. Bolalar bayonlari odatda kambag'al bo'lib, bola idrok etayotgan predmet va harakatlarni sanab o'tish bilan chegaralanadi.

Maxsus korreksion ta'lim ta'sirida bolalar nutqiy rivojlanishning yangi III darajasiga o'tadilar. Mazkur daraja leksik-grammatik va fonetik-fonematik rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan keng jumlati nutqning mavjudligi bilan xarakterlanadi, bu esa bolalarning atrofdagilar bilan nutqiy muloqotini kengaytirish imkonini beradi.

Mazkur darajadagi bolalar atrofdagilar bilan muloqotga faqatgina ota-onalari, tarbiyachilar, ular nutqiga tegishli izohlarni kiritishga qodir kishilar ishtirokidagina kirishadilar.

Erkin muloqot juda murakkab kechadi. Bolalar to'g'ri talaffuz eta olgan tovushlar mustaqil nutqda yetarlicha aniq jaranglamaydi. Tovushlarning differensiatsiyalashmagan talaffuzi xarakterli bo'lib, bunda bir tovush bir vaqtning o'zida mazkur fonetik guruhga mansub ikki yoki bir necha tovushlar bilan almashtiriladi.

Endilikda mazkur bosqichda bolalar nutqning barcha qismlaridan foydalanadilar, sodda grammatik shakllarni to'g'ri qo'llaydilar, sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni qurishga harakat qiladilar.

Bolaning talaffuz imkoniyatlari, turli bo'g'in tizimiga ega so'zlarni takrorlash imkoniyatlari yaxshilanadi. Bolalar ularning hayotiy tajribalaridan yaxshi tanish bo'lgan predmetlar, harakat, belgilar, sifat va holatlarni nomlashda qiynalmaydilar. Ular o'z oilalari haqida onsonlikcha so'zlab bera oladilar, qisqa hikoyani tuza oladilar. Og'zaki nutqiy muloqotda bolalar ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar va iboralarni chetlab o'tishga harakat qiladilar.

Bolalar keng jumlati nutqdan foydalanishlariga qaramay ular o'zlarining normal nutqga ega tengdoshlari qaranganda gaplarni mustaqil tuzishda katta qiyinchiliklarni sezadilar.

Nutqiy rivojlanishning III darajasiga ega bolalarda tovushlar talaffuzidagi barcha nuqsonlar kuzatiladi (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm).

Logopedik ishlar davomida ko'pgina bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish imkoni mavjud, lekin ba'zi holatlarda mazkur jarayon yetarlicha samarali kechmagan, bu esa nutqiy rivojlanishning IV darajasini ajratishni talab etdi.

T.B.Filicheva nutqiy rivojlanishning IV darajasini quyidagicha ta'riflagan – nutqning leksik-grammatik va fonetik-fonematik rivojlanmaganligining yorqin tarzda ifodalanmagan elementlariga ega keng jumlati nutq.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun mo'ljallangan logopedik guruhlariga nutqning leksik-grammatik tomonlarining buzilishlariga ega, nutqiy rivojlanishning turli darajalariga ega bolalar qabul qilinadi.

Zamonaviy tadqiqot ma'lumotlarini umumlashtirish natijasida nutqiy dezontogeneznining ba'zi umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Adabiyot manbalarini tahlil etar ekanmiz, nutqning rivojlanmaganligi so'zning tibbiy ma'nosida mustaqil nozologik birlikni ifodalamaydi degan xulosaga keldik. Bu mexanizmi, belgisi, tizimi, og'irligiga ko'ra turli-tuman bo'lgan guruhlar yig'indisidir.

2. Nutqning normal va nuqsonli rivojlanishida nutq va kognitiv funksiyalarning o'zaro bog'liqligi

Nutqiy faoliyat – tizimli jarayon bo'lib, o'z ichiga verbal va noverbal komponentlarni oladi. Uning psixojismoniy asosi – kommunikativ tizim ostini, kognitiv tizim ostini, intellektual qobiliyatlarni o'z ichiga olgan til va nutqning funksional tizimidir (P.K.Anoxin, 1975; A.A.Zalevskaya, 1999; A.N.Kornev, 2006). Uning bunday murakkab tarkibi ontogeneznining ilk bosqichlarida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Aynan mana shu davrda nutqning rivojlanishi kommunikativ ehtiyoj va qobiliyat, hissiy sohaning holati, bilish jarayonlari va qobiliyatlarning rivojlanish darajasi singari psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. A.N.Kornev (2006) psixonutqiy rivojlanishning ko'rsatkichlari sifatida

kommunikativ hatti-harakatlarni, hissiy ta'sirchanlikni, faollikni va u bilan bog'liq sensor jarayonlarni, ehtiyorsiz diqqatni ko'rsatadi.¹²

Zamonaviy psixologiya, pedagogika ilmda nutq kishilarning faoliyati jarayonida muloqot shakli sifatida tarixan tarkib topgan deya talqin etiladi. Nutq faqatgina inson uchun xos bo'lgan, uning faoliyatni ixtiyoriy boshqarish va nazorat etishni ta'minlovchi, oliy ruhiy funksiyalarning paydo bo'lishi uchun muhim shart hisoblanadi. Til – belgilar tizimi bo'lib, ular yordamida inson o'z hislari, fikrlari, tajribasini kodlaydi. Til muloqot va tafakkurning asosiy vositasi sifatida xizmat qilib, ma'lumotlarni saqlash va uzatishning, jumladan avlodlardan avlodlarga uzatishning vositasi hisoblanadi. Nutqiy faoliyat mehnat, o'yin, o'quv, kommunikativ va bilish faoliyati, jumladan mnestik kabi faoliyatning xilma-xil turlarini namoyon etib, ularga “xizmat qiladi”. Nutq bolaning ruhiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi (L.S.Vigotskiy, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontyev).

O'z navbatida imkoniyati cheklangan bolalarning ma'lum guruhida ruhiyatning turli xildagi buzilishlari (birinchi navbatda – intellektual rivojlanishning buzilishlari) odatda tilning qator komponentlarining (birinchi navbatda – semantik, sintaksik va leksik) rivojlanishdan ortda qolishiga yoki patologik buzilishiga olib keladi.

Nutqiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan ko'pgina bolalarda fonematik eshituv va fonematik idrok kamchiliklari kuzatiladi. G.F.Sergeyevaning ta'kidlashicha (1973), dizartriya va rinolaliya nutq nuqsonida nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshituv orqali idrok etishga sezilarli ta'sir etadi.¹³ Ko'pincha ma'lum o'zaro bog'liqlik kuzatiladi: talaffuzda tovushlar qanchalik ko'p differentsiatsiyalansa, tovushlarni eshituv orqali farqlash shunchalik muvaffaqiyatliroq amalga oshadi (Ye.N.Vinarskaya).

Nutqi rivojlanmagan bolalarda ehtiyoriy diqqatning o'ziga xosliklari uning chalg'uvchanligida yorqin namoyon bo'ladi. Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarda

¹² Хрестоматия по логопедии. 1 том. М.: “Педагогика”, 1997 г. 103 с

¹³ Хрестоматия по логопедии. 2 том. М.: “Педагогика”, 1997 г. 87 с.

ixtiyoriy diqqatning quyi darajasi ularda faoliyatning shakllanmasligiga yoki faoliyat tizimining ma'lum darajada buzilishiga olib keladi (Y.F.Garkusha, O.N.Usanova, 1985).

T.S.Ovchinnikova (1996) nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini tadqiq etar ekan, qator o'ziga xosliklarni aniqladi.¹⁴ Korrektur sinovni bajarishda quyi darajadagi unumdorlik belgilangan. Xatolar qatorida birinchi o'rinni tushirib qoldirishlar egallaydi. Shuningdek diqqatni taqsimlashdagi kamchiliklar, yuqori chalg'uvchanlik, umumiy uyushmaganlik aniqlangan. Shu bilan bir qatorda "Nuqtalar" metodikasini bajarishda yodda saqlab qolish va diqqat hajmiga ko'ra nutq nuqsoniga ega va normal nutqga ega bolalar o'rtasida ishonchli tafovutlar aniqlanmagan.

Ko'pgina tadqiqotchilar nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni nazarda tutib, ularning intellekti saqlangan; biroq alohida kognitiv operatsiyalarning kamchiliklari mavjud deya tahmin qilishgan. (T.N.Volkovskaya, 2002; G.V.Gurovets, 1974; N.S. Jukova, YE.M.Mastyukova, 1971; A.S.Zavgorodnyaya; YE.A.Nikulina, 1985; R.I.Lalayeva, 2005; O.N.Usanova, T.N.Sinyakova, 1982; T.A.Fotekova, 1994;).

Bilish faoliyatining holati motor alaliyaga ega bolalarda ayniqsa puxta o'rganilgan. R.A.Belova-David tadqiqotlari natijasida (1972) alaliyaga ega bolalar uchun faqatgina rang, shakl, kattalik, predmetlarning fazoviy va miqdoriy munosabatlari haqidagi sodda tasavvurlar xos ekanligi aniqlangan. Muallifning ko'rsatishicha, ko'rgazmali-harakat tafakkur saqlangan holda ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy tafakkur normadan ortda qoladi.

Nutqiy nuqsonlarda hissiy-irodaviy doira va shaxs rivojlanishining o'ziga xosliklari yetarlicha o'rganilmagan. Nutqiy nuqsonni anglash, diqqatning unga qaratilganlik darajasi asosan duduqlanuvchi bolalarda (L.I.Belyakova, 1984; G.A.Volkova, A.Y.Panasyuk, 1979; V.I.Seleverstov, 1994; A.G.Shembel) va ovoz buzilishlariga ega shaxslarda o'rganilgan (O.S.Orlova, L.YE.Goncharuk, 1983).

¹⁴ Хрестоматия по логопедии. 1 том. М.: "Педагогика", 1997 г. 209 с.

O.A.Slinko (1987) maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar shaxsining rivojlanishi va ularda shaxslararo munosabatlarning shakllanish o'ziga xosliklarini o'rganar ekan, nutqi to'liq rivojlanmagan bola shaxsining shakllanishiga nutqiy nuqsonning ifodalanganlik darajasi ta'sir etishini va nutqiy yetishmovchilik muloqot vositalarining shakllanmaganligi hisobiga tengdoshlar davrasida salbiy munosabatlarning asosiy sababi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar kommunikativ soha o'ziga xosliklarini va o'yin faoliyatining holatini o'rganishga doir qator tadqiqot ishlari G.V.Chirkina (1996) rahbarligi ostida amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot natijalari nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi haqidagi tasavvurlarni boyitadi (L.G.Solovyeva, 1996).¹⁵

Lug'at boyligining kambag'alligi va differensiatsiyalashmaganligi, bog'langan bayonning o'ziga xosligi singari nutqiy rivojlanishning o'ziga xosliklari to'laqonli muloqotni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Mazkur qiyinchiliklar natijasi sifatida muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayishi, dialogik va monologik nutq shakllarining shakllanmaganligi, muloqotni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishning mavjud emasligi muloqot vaziyatida mo'ljal ola bilmaslik, negativizm singari hulq-atvor o'ziga xosliklari kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar o'yin faoliyati rivojlanganligining quyi darajasi: syujetning kambag'alligi, o'yinning protsessual xarakteri, nutqiy faoliyatning sustligi alohida e'tiborni o'ziga jalb etadi (L.G.Solovyeva, 1996). Bunday bolalarning ko'pchiligi uchun turli nevrologik simptomatika bilan bog'liq ravishda yuqori qo'zg'aluvchanlik xarakterli bo'lib, shu bois tarbiyachilar tomonidan nazorat etilmagan o'yinlar ba'zida juda tashkillashtirilmagan tus oladi.

Nutqiy nuqsonga ega bolalarda motorika, ko'ruv-motor koordinatsiya kamchiliklari kuzatilib, bu har qanday faoliyatning tashkiliy momentlari bo'lgan

¹⁵ Ayupova M.Y. Logopediya /Darslik/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2011 y. - 145 b.

taktil-motor hissiyotlarning yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Fazoviy tasavvurlar va obrazli soha yetarlicha rivojlanmagan. Mazkur kamchiliklar birinchi navbatda bolalarning tasviriy ijodga bo'lgan qobiliyatiga ta'sir etadi. Alaliyaga ega bolalarda tasvirlangan rasmlar mavzusining torligi va mazkur mavzularning qayta-qayta takrorlanishi, predmet va hodisalarni tasvirlash usullarining mavjud emasligi, yasash va qurish usullarining kambag'alligi, qaychidan foydalana olmasliklari va b. kuzatiladi (L.S.Svetkova, T.M.Pirsxalayshvili). Elementar texnik usullarni egallagan bolalar ham mashg'ulotlari davomida yetarlicha sabot, iroda va diqqatni namoyish etmaydilar. O'zgalar va shaxsiy faoliyatga bo'lgan tanqidiy munosabat ham pasaygan.

O.N.Usanova va OA.Slinkoning ta'kidlashicha, nutqiy nuqsonga ega bolalar uchun o'quv faoliyatning o'ziga xosliklari xarakterli. Masalan, duduqlanuvchi bolalar uchun odatiy shart-sharoitlarning o'zgarishi faoliyat turg'unligining pasayishiga, diqqatning tarqoqligiga olib keladi.¹⁶ Bir faoliyat turidan ikkinchi bir faoliyat turiga ko'chish bilan bog'liq topshiriqlar qiyinchilik tug'diradi. Aqliy va iroda zo'riqlashini talab etuvchi topshiriqlarni bajarishda topshirilgan ish turidan nisbatan odatiy, avval egallangan ish turiga o'tish kuzatiladi. Ba'zi bolalarda shaxsiy singari, o'zgalar faoliyati natijalarini ham mustaqil nazorat eta olmaslik kuzatiladi. Mazkur bolalar mashg'ulotlar davomida shaxsiy javoblarni fikrlab, tegishli misollarni tayyorlash, do'stlari javoblarini tinglash, qiyinchiliklar tug'ilganda ularga yordam berish, noto'g'ri javoblarni to'g'rilashda qiyinchiliklarni sezdilar. O'qish davomida ular o'z shaxsiy xatolarini, o'rtoqlarining xatolarini sezmaydilar, dialoglarni "rollarga" bo'lingan holda o'qish davomida "o'z" so'zlarini o'z vaqtida talaffuz etmaydilar, ba'zan har ikki kishi so'zini bir vaqtda o'qiydilar. Darslarga tayyorgarlik ko'rish davomida mazkur bolalar topshiriqlarni bajarishning mexanik usullariga murojat etib, o'qilganlarni anglab, tushunib yetishni emas, balki yod olishni ma'qul ko'radilar.

¹⁶ Усанова О.Н. Дети с проблемами психического развития. М.: "Педагогика", 1995 г.

Shunday qilib biz ruhiy va nutqiy faoliyatning asosiy tarkib topuvchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni atroflicha o'rganib chiqdik.

Bizning tadqiqotimiz predmeti mnestic faoliyat bo'lgani bois, mazkur faoliyatning nutqiy rivojlanishi normada bo'lgan va nuqsonga ega bolalarda uning shakllanish o'ziga xosliklari alohida e'tiborga loyiq.

3. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotira faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Xotira – bu ruhiy bilish faoliyati hisoblanib, uning mohiyati ma'lumotlarni esda olib qolish, saqlash va qayta yodga tushirish, jumladan, insonning genetik va orttirilgan tajribasidan tashkil topgan obrazli-tasavvurdan iborat.

Xotira haqidagi mavjud nazariyalardan eng tanish bo'lganlari quyidagilar:

Assotsiativ nazariya (G.Ebbingauz, D.Miller, A.Pilsker) xotirani bog'liqlik, o'xshashlik, qarama-qarshilik, vaqt va fazoviy yaqinlikka ko'ra assotsiatsiyalar tizimi sifatida tahlil etadi. Mazkur qarashlarga bixeviorizm (Dj.Uotson, B.F.Skinner, D.Xobb) va psixoanaliz (Z.Freyd) yondashuvlari yaqin. Geshtalt nazariya (M.Vertgeymer, V.Keler, K.Levin) yondashuvi nuqtai-nazaridan xotiraning asosi assotsiatsiyalar emas, ma'lumot elementlarini butunligicha tashkillashtirish hisoblanadi. Xotiraning ma'no nazariyasi (A.Bine, K.Byuler) ma'lum bo'lib, unga muvofiq esda saqlab qolish va qayta yodga tushirishda materialning ma'no mazmuni birinchi o'ringa ilgari suriladi (Jdan A.N., 1990).

Xotirani tasniflashga doir bir necha asosiy yondashuvlar mavjud. Bugungi kunda xotiraning turli turlarini ajratib ko'rsatish uchun umumiy asos sifatida xotira tavsifining esda saqlab qolish va yodga qayta tushirish faoliyatining o'ziga xosliklariga bog'liqligini e'tiborga olish kerak (A.R.Luriya). Bunda xotiraning alohida turlari uch asosiy kategoriyalarga mos tarzda ajratiladi: - faoliyatda ustunlik qiluvchi ruhiy faollikning xarakteriga ko'ra xotiraning harakat, hissiy, obrazli va og'zaki-mantiqiy turlari ajratiladi; - faoliyat maqsadiga ko'ra (ixtiyoriy va ixtiyorsiz); - materialni mustahkamlash va saqlash davomiyligiga ko'ra (qisqa muddatli va uzoq muddatli).

Xotira turlarini ruhiy faollik xarakteriga ko'ra klassifikatsiyalash ilk bor P.P.Blonskiy tomonidan taklif etilgan.

Harakat (yoki motor) xotira – bu turli harakatlarni yodda saqlash, saqlash va qayta yodga tushirishdir (N.A.Bernshteyn). Harakat xotirasi yurish, yozish, nutq singari turli amaliy va mehnat malakalarining shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Harakat xotirasi bolalarda juda erta vujudga keladi. Uning ilk ko'rinishlari hayotning birinchi oylariga to'g'ri keladi. Dastlab u faqatgina harakatning shartli reflekslarida namoyon bo'ladi. Keyinchalik harakatlarni yodda saqlash va qayta yodga tushirish tafakkur, iroda va b. jarayonlar bilan uzviy bog'lanib, ongli xarakter kasb eta boshlaydi. Bola hayotining birinchi yilining so'ngiga kelib, harakat xotirasi nutqni egallash uchun lozim bo'lgan rivojlanish darajasiga yetadi, bu esa keyinchalik yozma nutqni egallash uchun asos sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun rivojlanishning turli bosqichlarida harakat xotirasi sifat jihatdan bir xilda namoyon bo'lmaydi.

Hissiy xotira – bu hissiyotlarga asoslangan xotira. Xotirada saqlangan hissiy kechinmalar harakatga undovchi yoki avvaldan salbiy kechinmalarga sabab bo'lgan harakatlardan cheklovchi signallar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Hissiy xotiraning ilk ko'rinishlari bola hayotining birinchi yarim yilida kuzatiladi. Bola rivojlanishining ilk bosqichlarida hissiy xotira shartli reflektor xarakter kasb etib, rivojlanishning nisbatan yuqori bosqichlarida esa hissiy xotira ongli hisoblanadi. Obrazli xotira – bu tasavvurlarga asoslangan xotira. Obrazli xotiraning mohiyati shundan iboratki, idrok etilganlar tasavvur shaklida qayta yodga tushiriladi. Qayta yodga tushirishning xarakteriga obrazning mazmun o'ziga xosliklari, uning hissiy bo'yog'i ta'sir etadi. Qayta yodga tushirishning aniqligi ma'lum darajada idrok davomida nutqning ishtiroki darajasi bilan belgilanadi. Idrok davomida nomlangan, so'z bilan tasvirlanganlar nisbatan aniqroq qayta yodga tushiriladi (A.R.Luriya).

Ko'pgina tadqiqotchilar, xotira faoliyati davomida u yoki bu analizatorning ishtiroki darajasiga ko'ra obrazli xotirani ko'ruv, eshituv, teri tuyush, ta'm bilish xotiralariga ajratadilar.

Ko'pgina tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, xotiraning mazkur barcha ko'rinishlari o'zaro bir-biri bilan bog'liq va bir-biridan holi ravishda faoliyat ko'rsatmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, faoliyatning maqsad va vazifalariga bog'liq ravishda xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga ajratiladi. A.N.Leontyev ixtiyoriy yodda saqlashni esda olib qolishning ma'lum usullarini o'z ichiga olgan maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida talqin etadi (A.N.Leontyev, 1983).

Materialni mustahkamlash va saqlash davomiyligiga ko'ra xotira uzoq muddatli va qisqa muddatli xotiraga bo'linadi.

Qisqa muddatli xotira – bu xotiraning shunday turiki, u ma'lumotni juda qisqa muddatga saqlab qolish bilan xarakterlanadi. Biroq ixtiyorsiz xotiradan farqli ravishdan, qisqa muddatli xotirada esda saqlab qolish uchun insondan ma'lum irodaviy zo'r berish talab etiladi. Qisqa muddatli xotira quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi, tekshiriluvchiga ma'lumotni yodda saqlab qolish uchun juda qisqa vaqt beriladi (1 daqiqa atrofida), so'ng esa u nimani eslab qolganini yodga tushirish so'raladi. Kishilar qisqa muddatli xotiraning turli individual hajmiga egadirlar. Qisqa muddatli xotiraning hajmi mexanik tarzda, maxsus usullarni qo'llamagan holda idrok etilayotgan ma'lumotlarni yodda saqlash qobiliyati bilan xarakterlanadi. Qisqa muddatli xotira bois, ma'lumotlarning ma'lum hajmi qayta ishlanib, keraksizi chiqarib tashlanib, kerakligi qoldiriladi. Qisqa muddatli xotira tafakkurni tashkillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etgani bois, u operativ xotiraga juda o'xshash. Operativ xotira tushunchasi bilan bevosita inson tomonidan amalga oshiriladigan dolzarb harakat, operatsiyalarga xizmat qiluvchi mnestic jarayonlar belgilanadi. Yakuniy natija tomon yaqinlashgan sari konkret "tahlil etilgan" material yoddan chiqishi mumkin. Inson tahlil etayotgan material qismlari turlicha bo'lishi mumkin. Mazkur qismlar hajmi, ya'ni xotiraning operativ birliklari amalga oshirilgan u yoki bu faoliyatning muvaffaqiyatiga ta'sir etadi. Shuning uchun, materialni yodda saqlab qolish uchun xotiraning optimal operativ birliklarining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi (A.R.Luriya).

Yaxshi qisqa muddatli xotirasiz uzoq muddatli xotira normal faoliyat ko'rsata olmaydi. Uzoq muddatli xotira ma'lumotni uzoq vaqt saqlab, uni saqlashga ziyon yetkazmagan holda undan bir necha bor foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, uzoq muddatli xotira unga bo'lgan qayta murojat bois faqatgina yaxshilanib, yodda olib qolinadigan material umumiy hajmining ortishi yuz beradi.

Ma'lumotni amaliy yodda saqlash va qayta yodga tushirish jarayonida xotiraning turli turlari birgalikda, o'zaro bir-birini to'ldirgan holda ishlay boshlaydi. Inson oldida biron-bir narsani yodda saqlab qolish, biron-bir narsaga o'rganish, biron-bir narsani o'zlashtirish, saqlab qolish so'ng esa qayta yodga tushirish vazifasi tursa, xotiraning barcha turlari parallel ravishda ishga tushadi.

Xotira – bu murakkab ruhiy jarayon hisoblanib, u yodda saqlab qolish, saqlash va qayta yodga tushirish singari qator ruhiy jarayonlarni birlashtiradi.

Yodda saqlash – bu idrok etilgan ma'lumotni tasvirlash va keyinchalik saqlash jarayonidir. Mazkur jarayon kechish faolligining darajasiga ko'ra yodda saqlashning ikki turi ajratib ko'rsatiladi: ongli (yoki ixtiyoriy) va ongsiz (ixtiyorsiz).

Ongsiz yodda saqlash – bu oldindan belgilangan maqsadsiz, biron-bir usullarni qo'llamagan holda hamda irodaviy zo'r berishni namoyon etmagan ravishda yodda saqlashdir. Bu insonga ta'sir etgan va qo'zg'alishdan bosh miya qobig'ida ma'lum bir izni saqlab qolganlarni oddiy yodda saqlashdir. Ongsiz yodda saqlash doimiy faoliyat ko'rsatuvchi, takrorlanuvchi voqea-hodisalarni aks ettiradi. Shunday, bola bir yoshdan boshlab ma'lum nutqiy muhitda ona tilidagi so'zlarni yodda saqlab qoladi.

Psixologlarning tadqiqotlari, ixtiyorsiz yodda saqlashning faoliyat maqsadi va uning mazmuniga bog'liqligini ko'rsatdi (P.I.Zinchenko, 1961).

Faol mustaqil ish natijasida olingan ma'lumotni yodda saqlash u bilan ishlash uchun tayyor tarzda berilgan ma'lumotni esda saqlab qolishdan ko'ra yaxshiroq amalga oshadi.

Yodda saqlash sifati materialga bo'lgan hissiy munosabatga ham bog'liq. Hissiy yoki amaliy jihatdan ahamiyatli maqsad mustahkam yodda saqlashga imkon

beradi. Z.M.Istomina tadqiqotlari davomida maktabgacha yoshdagi bolalarga bir qator soʻzlarni yodda saqlashni taklif etgan. Boshqa bir guruh bolalarda mazkur soʻzlarni yodda saqlab qolish “doʻkon” oʻyini yordamida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalarining koʻrsatishicha, ikkinchi guruhda soʻzlar yaxshiroq yodda saqlangan: oʻyin davomida yodda saqlash abstrakt maqsadi hayotiy muhim maqsadga aylangan.

Mexanik yodda saqlash – bu idrok etilayotgan materialning turli qismlari oʻrtasida mantiqiy bogʻliqlikni anglamagan holda yodda saqlab qolishdir.

Mexanik yodda saqlashdan farqli ravishda ongli yodda saqlash materialning alohida qismlari oʻrtasidagi ichki mantiqiy bogʻliqlikni tushunishga asoslangan. Ongli yodda saqlash doimo tafakkur jarayonlari bilan bogʻliq boʻladi va ikkinchi signal sistemasi darajasida material qismlari oʻrtasidagi umumlashtirilgan bogʻliqliklarga tayanadi (R.Atkinson).

Inson idrok etilgan barcha maʼlumotlarni nafaqat yodda olib qoladi, balki maʼlum vaqt saqlab ham qoladi. Shunday qilib, saqlash – bu olingan maʼlumotni maʼlum muddat davomida xotirada olib qolishdir. Saqlash ikki jihatga ega: saqlashning oʻzi va unitish. Saqlash – bu dinamik jarayon. Saqlash davomida material qayta quriladi, taʼmirlanadi va maʼlum darajada qayta ishlanadi. Avval yodda saqlanib qolgan bilimlar yangi oʻzgartirilgan bilimlar bilan oʻzaro taʼsirga kirishadi: ular yangi aloqalarga kirishadi (assotsiatsiyalanadi), aniqlashtiriladi va differentsiatsiyalanadi, umumlashtiriladi va qayta kodlanadi. Materialni qayta taʼmirlash turli shakllarda namoyon boʻladi, masalan, baʼzi nisbatan ahamiyatsiz detllarning boshqa bir detallar bilan almashtirilishi, material ketma-ketligining oʻzgartirilishi, uning umumlashganlik darajasi. Esdan chiqarish avval idrok etilgan maʼlumotni qayta tiklash imkonining mavjud emasligida ifodalanadi.

Esdan chiqarishning namoyon boʻlish xarakteri turlicha boʻlishi mumkin.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarni xulosalagan holda, xotira – bu bir qator oʻzaro bogʻlangan mnestik jarayonlarni birlashtiruvchi murakkab ruhiy jarayon deya xulosa qilishimiz mumkin.

Bola hayotining ilk oylarida kuzatiladigan shartli refekslarni xotiraning ilk ko'rinishlari deya hisoblash mumkin. Bola predmetlarni taniy boshlagan vaqtdan xotira nisbatan yorqinroq namoyon bo'la boshlaydi. Birinchi bor bu bola hayotining birinchi yarim yilligida kuzatiladi va dastlab taniy olish obyektlarning tor doirasi bilan chegaralanadi: bola uni doimo o'rab turgan kishilarni onasini, predmetlarni taniydi.

Yurish malakalarini egallash bola uchun tanish bo'lgan predmetlar doirasini nisbatan kengaytiradi. Hayotining ikkinchi yilining so'ngiga kelib bola bir necha hafta ilgari ko'rganlarini, uchinchi yilining so'ngiga kelib – bir necha oy avval idrok etganlarini, to'rtinchi yilining so'ngiga kelib - taxminan bir yil avval bo'lgan voqealarni eslay oladi.

Avval bolada taniy olish namoyon bo'ladi, xotirlash esa nisbatan kechroq kuzatiladi. Xotirlashning birinchi belgilari nutq rivojlanishining boshlanishi bilan, hayotning ikkinchi yilidagina kuzatiladi.

Maktabgacha yosh davri esda saqlash va xotirlash qobiliyatining shiddat bilan rivojlanishi bilan xarakterlanadi (A.V.Zaporojets). Maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasi asosan ixtiyorsiz xarakte kasb etadi. Yodda saqlab qolish va yodga tushirish bola irodasi va ongidan mutsaqil ravishda amalga oshadi. Ular faoliyat davomida amalga oshadi va faoliyat xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bola faoliyat davomida uning e'tiborini o'ziga jalb etgan, unda taassurot, qiziqish uyg'otganlarni eslab qoladi. Mazkur yoshda predmet, rasm, so'zlarni ehtiyorsiz yodda saqlab qolish sifati bolalar ularga nisbatan qay darajada faol harakatni amalga oshirayotgani, harakatlar davomida ularni idrok etish, fikrlash, guruhlash qay tarzda amalga oshayotganiga bog'liq.

Kichik maktabgacha yoshdagi bola o'z oldiga biron-bir narsani yodda saqlab qolish yoki eslash maqsadini qo'ya olmaydi, buning uchun maxsus usullarni qo'llamaydi (P.I.Zinchenko).

Yodda saqlash va qayta yodga tushirishning ixtiyoriy shakllari kichik maktabgacha yoshda paydo bo'la boshlaydi. Asta-sekin bevosita, ehtiyorsiz yodda saqlash yodda saqlanib qolinayotgan materialni tahlil etishning maxsus usullariga

tayanadigan murakkab, ongli boshqariladigan faoliyatga aylanadi. Bola yodda saqlab qolish maqsadini belgilaydi, uni anglay boshlaydi va mustaqil ajratib oladi. Mazkur maqsadni anglash o'yin faoliyati davomida onsonroq kechadi. A.A.Smirnova, P.I.Zinchenko, Z.M.Istimina tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, masalan, do'konda ma'lum predmetlarni sotib olish topshirig'ini bajarayotgan xaridor rolini bajarayotgan bola tomonidan yodda saqlab qolingani so'zlar miqdori kattalarning to'g'ridan-to'g'ri talabi asosida yodda saqlab qolingani so'zlar miqdoridan ortiqroq bo'ladi (Z.M.Istimina, 1978).

Xotiraning ixtiyoriy shakllarini egallash bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ilk bosqichda bola hali tegishli usullarni egallamay turib, yodda saqlash va qayta yodga tushirish vazifasining o'zinigina belgilay boshlaydi. Bunda qayta yodga tushirish topshirig'i ertaroq belgilanadi, chunki birinchi navbatda bola shunday vaziyat bilan to'qnash keladiki, undan aynan avval idrok etgan yoki bajarganlarini yodga tushirish so'raladi.

3-4 yoshli bolaning xotirasi qolgan ruhiy jarayonlarni belgilovchi markaziy funksiya hisoblanadi. Mazkur yoshda bola uchun fikrlash – yodga tushirish demak, ya'ni avvalgi tajribaga tayanish demak. Juda yaxshi xotira bo'lsa, bola umumiy tasavvurlar doirasida harakat qilish qobiliyatini egallaydi. Agarda avval bola konkret vaziyat ixtiyorida bo'lgan bo'lsa, endilikda uning tafakkuri ko'rgazmali-harakatli tafakkur darajasiga yetib boshlaydi. Bola voqea-hodisalar o'rtasida sodda sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatib boshlaydi. Bolada uni o'rab turgan atrof-olamni qandaydir bir yo'l bilan tushuntirish va tartibga solish imkoniyati va intilishi paydo bo'ladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, mazkur yoshda bolaning xotirasi ixtiyorsiz: u o'z oldiga biron-bir narsani yodda saqlab qolish maqsadini belgilamaydi. Mazkur yoshda ko'ruv-hissiy xotiraga javob beruvchi miyaning o'ng yarim sharlaridagi tizimlar ustunlik qilgani bo'lsa yodda saqlash yengil va tabiiy kechadi. Chap yarim sharlarning mantiqiy bo'limlari hali sust shakllangan bo'ladi. Hissiy xotira endilikda shakllangan va bolaga dunyoni bilishda yordam beradi. Keyinchalik aynan hissiy xotira intuitsiyaning shakllanishiga ko'maklashadi (A.R.Luriya).

Agarda she'r jarangli va qofiyadosh bo'lsa, bola uni onsonlikcha yodda saqlab qoladi. Ertak, hikoya, filmdagi dialoglar bolaning yodida onsongina saqlanib qoladi, agarda u qahramonlar hayoti bilan yashasa, ular kechinmalariga sherik bo'lsa. Bola materialni qanchalik ongli yodda saqlab qolsa, yodda saqlab qolish shunchalik samaraliroq bo'ladi (V.A.Kovshikov, V.P.Gluxov). Ma'noli xotira mexanik xotira bilan bir qatorda rivojlanadi. Tabiat bolaga hech qanday bir urinishlarsiz ulkan materialni yodda saqlab qolish imkonini bergan. Bola so'zlarni shunchaki yodda saqlaydi va qo'llaydi. Ikki tilli oilalarda, bola har ikki tilni egallaydi. Mazkur yoshdagi bolada ulkan hayotiy energiya mavjud bo'lib, bilish faolligi va olamni bilish quvonchi juda yuqori. U katta mamnuniyat bilan olamni o'rgana boshlaydi. Aynan mazkur yoshda bolani o'rab turgan atrof-olam haqidagi qiziqarli va turli-tuman materialni tanlagan holda uning bilishga bo'lgan istagini savodli qondirish muhim.

Olimlar tomonidan aniqlanishicha, uzoq muddatli xotira aynan uch yoshga kelib shakllanadi, ya'ni bola o'zini anglaydi va shaxs sifatida xotirlaydi. Xotiralar o'sha davrning hissiy holatini uyg'otadi va bir umrga bolalik hislari saqlanib qoladi. Mazkur davrda shaxsiy qadr-qimmat hislari shakllanadi. Ilk bolalik damlarini xotirlay olish shaxsiy noyob-hayotiy tajribani anglashga imkon beradi. Bola shaxs sifatida takrorlanmas ekanligini tushuna boshlaydi (M.I.Lisina, I. Silvestru, 1983). 4-5 yoshga kelib, bolada obrazli tafakkur bilan bir qatorda obrazli xotira jadal rivojlana boshlaydi. Yodda olib qolishdan tashqari, ma'lumotni saqlash va qayta yodga tushirish muhim rol o'ynaydi. Bu kishi tomonidan egallangan yangi tajribaning endilikda unda mavjud elementlar bilan bog'liqligining miqdori, mazmuni va mustahkamligiga bog'liq.

To'rt-besh yoshli bolalarda xotira hali ixtiyorsiz bo'ladi, ya'ni bola hali uni boshqara olmaydi. Biroq ruhiy jarayonlar yetarlicha rivojlangan bo'lib: diqqat turg'un bo'la boshlaydi, bola tafakkur usullarini egallay boshlaydi, tasavvur turli obrazlarni tasavvur qilish imkonini beradi (Z.M.Istomina, 1978).

Umuman olganda, mazkur yoshga kelib bola xotirasida rasmda tasvirlangan predmetlardan 5-6 predmet nomini yodda saqlay oladi. Odatda buning uchun

bolaga mazkur mashg'ulotlar qiziq bo'lishi kerak. Bolaga u yoki bu shakldagi yodda saqlash qolish usullarini kattalar aytib turadi. Astalik bilan yodda saqlab qolish maqsadida bola materialni takrorlash, anglash, bog'lashga, mazkur bog'lanishlarni qayta yodga tushirishda qo'llashga o'rganadi. Oxir-oqibat bolalar yodda saqlab qolish uchun maxsus hatti-harakatlarning zarurligini anglab, buning uchun yordamchi usullarni qo'llash ko'nikmasini egallaydilar.

Ixtiyoriy xotirani egallashdagi muvaffaqiyatlarga qaramay, hatto maktabgacha yosh davrining so'ngiga kelib xotiraning yetakchi turi sifatida ixtiyorsiz xotira saqlanib qolaveradi. Ixtiyoriy yodda saqlab qolish va qayta yodga tushirishga bolalar kamdan-kam hollarda, faoliyat davomida tegishli vazifalar paydo bo'lganda yoki buni kattalar talab qilganlaridagina murojat etadilar.

Xotiraning qizg'in rivojlanishi maktab davriga to'g'ri keladi. Kichik maktab yosh davrida ixtiyoriy yodda saqlab qolish shiddatli rivojlanish tusini oladi. U yoki bu o'quv materialini yodda saqlab qolish zaruriyati katta irodaviy zo'r berishni talab etadi, bu esa ixtiyoriy xotiraning rivojlanishiga olib keladi. Yodda saqlab qolish va qayta yodga tushirish nafaqat ixtiyoriy xarakter kasb eta boshlaydi, balki yanada faol bo'lib boradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'z oldiga o'quv materialini o'zlashtirishga qaratilgan differentsiatsiyalashgan vazifalarni belgilashga o'rganadi, ya'ni ma'lumotni uning murakkablik darajasiga ko'ra o'zlashtirish va qayta yodga tushirish usullarini aniqlashga harakat qiladi va astalik bilan ongli yodda saqlab qolishni egallaydi. Shuning uchun o'qituvchining mazkur bosqichdagi muhim vazifasi o'quvchilarni yodda saqlab qolishga o'rgatish, ularni ongli o'zlashtirishning usullari, sxemalari bilan tanishtirishdan iborat. Ta'limni faollashtirish muammosiga doir L.V.Zankov, P.I. Zinchenko, A.A.Smirnov kabi psixologlarning olib borgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, kishi tomonidan idrok etilayotgan mazmunni o'zlashtirish va qo'llash uchun tayanch bo'lgan ma'lum sxemani qo'llanilishi, yodda saqlab qolish va uning keyinchalik qayta yodga tushirish samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, bolalarda xotira tug'ilgandan boshlab, butun hayot davomida rivojlanadi. Xotira miyaning rivojlanishi, yashash tarzi,

ta'lim va tarbiya ta'siri ostida ruhiy rivojlanish davomida shakllanadi va o'zgaradi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotira xususiyatlarini tadqiq etish uning sifat jihatdan o'ziga xosligini ko'rsatadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda normal rivojlangan kattalar va bolalar xotira mexanizmlari va uning o'ziga xosliklari, mnestic faoliyatni takomillashtirish metodlariga doir masalalar yetarlicha keng yoritilgan. Biroq nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotira xususiyatlari va uning rivojlanish o'ziga xosliklarini tahlil etishga qaratilgan kam sonli maxsus tadqiqotlar korreksion-pedagogik jarayon ehtiyojlarini qondirmaydi. Ma'lumki, nutqning to'liq rivojlanmaganligi bugungi kunda maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar orasida eng ko'p tarqalgan nutqiy nuqsonlardan biri hisoblanadi.

Nuqsonlarning turli tabiatiga qaramay, mazkur bolalarda nutqiy faoliyatning tizimli buzilishini ko'rsatuvchi tipik o'ziga xosliklar mavjud. Nutqiy faoliyatning to'liq emasligi sensor, intellektual (T.S.Sinyakova, O.N. Usanova, 1982) (jumladan mnestic faoliyatning) va affekt-irodaviy sohaning (N.N.Traugott) shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur nuqsonning tizimliliigi tafakkurning spetsifik o'ziga xosliklariga sabab bo'ladi. So'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanishi ortda qoladi. Maxsus ta'lim yordamisiz bolalar analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish operatsiyalarini qiyinchilik bilan egallaydilar.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun harakat sohasining rivojlanishdan ortda qolishi xos.

N.S.Jukova, R.YE.Levina, YE.M.Mastyukova, T.B.Filicheva, M.YE.Xvatsev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar mnestic jarayonining o'ziga xosliklari aniqlanib, ular nutqiy rivojlanish, ruhiy va nevrologik statusning turli darajalarida turlicha bo'ladi. Nisbatan saqlangan ma'no mantiqiy xotirada verbal xotira tizimida o'zgarishlar kuzatilib, yodda saqlashning unumdorligi zarar ko'radi. Mualliflarning ko'rsatishicha, bolalar murakkab instruksiylarni, elementlarni, topshiriqlarning ketma-ketligini yoddan

chiqaradilar. Qator bolalarda kuzatiladigan esga tushirishning quyi faolligi bilish faoliyati rivojlanishining cheklangan imkoniyatlari bilan uyg'unlashishi mumkin.

Shuningdek, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar fazo-vaqt parametrlariga ko'ra harakat topshiriqlarini bajarishda murakkabliklar sezib, harakat elementlarining ketma-ketligini buzadilar, uning tarkibiy qismlarini tushirib qoldiradilar, bu esa harakat xotirasining, uni ketma-ketlikda tashkillashtirishning buzilganligidan, suksessiv jarayonlarning yetarlicha emasligidan dalolat beradi. Alaliya nutq nuqsonini o'rganish bilan shug'ullangan olimlar, bola ruhiy faoliyatining turli sohalarida mazkur nuqson namoyon bo'lish o'ziga xosliklarini ko'rsatadilar (VK.Vorobyeva, B.M.Grinspun, G.Gutsman, R.YE.Levina, A.Libmann, V.K.Orfinskaya, N.N.Traugott, M.YE.Xvatsev, S.N.Shaxovskaya va b.).

G.S.Gumennaya, Y.F.Garkusha, V.I.Lubovskiy nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda xotiraning va boshqa oliy psixik funksiyalarning shakllanishida o'ziga xoslikning mavjudligini tasdiqlaydilar.

Ye.M.Mastyukova tomonidan o'tkazilgan og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab o'quvchilarida yuqori qobiq osti funksiyalarni, verbal va ko'ruv qo'zg'atuvchilarga qisqa muddatli xotiraning hajmini, uzoq muddatli xotiraning asosiy parametrlarini o'rganish materiallari nutqi rivojlanmagan bolalarda mnestic jarayonlarning buzilganligidan dalolat beradi. Ye.M.Mastyukova verbal xotira buzilishlarining ifodalanishi nutqiy rivojlanmaganlikning darajasi va xarakteriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini aniqlagan.¹⁷

Kichik maktab yoshidagi disgrafik o'quvchilarda eshituv nutqiy va ko'ruv xotirasi holatini maxsus o'rganish xotiraning turli parametrlarida nuqsonlarning mavjudligini, shuningdek o'g'il bola va qiz bolalarda uning sifat jihatdan o'ziga xosligini aniqladi (V.Bugiotopulu).

¹⁷ Мастюкова Е.М. Лечебная педагогика (ранний и дошкольный возраст): Советы педагогам и родителям по подготовке к обучению детей с особыми проблемами в развитии – М.: “Владось”, 1997 г.-304с.

I - bob bo'yicha xulosa

Adabiyot manbalarini tahlil etar ekanmiz, nutqning rivojlanmaganligi soʻzning tibbiy maʼnosida mustaqil nozologik birlikni ifodalamaydi degan xulosaga keldik. Bu bolalar nutqiy jihatdan rivojlanishida chetga chiqishlarning mexanizmi, belgisi, tizimi, ogʻirligiga koʻra turli-tuman boʻlgan guruhlar yigʻindisidir.

Bolalarda nutqning rivojlanmaganlik mexanizmlari yetarlicha oʻrganilmagan. Bu bir tomondan yetakchi psixojismoniy shart-sharoitlar, boshqa bir tomondan – bolalarda nutq rivojlanishining alohida shakllarida til imkoniyatlari shakllanishining kognitiv va nutq mexanizmlari haqida gapirish imkonini beradi.

Nutqiy faoliyat – tizimli jarayon boʻlib, oʻz ichiga verbal va noverbal komponentlarni oladi. Ularning birligi qator omillar, birinchi navbatda nutqiy singari, nutqiy boʻlmagan faoliyat turi va shakllari nutqiy kommunikatsiya vaziyati, amaliy yoki intellektual vazifalar xarakteri bilan belgilanadi.

Nutqiy dizontogenez sharoitida oliy psixik faoliyat va bolaning hissiy-irodaviy doirasi oʻziga xos tarzda kechadi. Nutqning yetarlicha shakllanmaganligi va kognitiv funksiyalarning murakkab oʻzaro taʼsiri kuzatiladi.

Xotira – bu ruhiy bilish faoliyati hisoblanib, uning mohiyati maʼlumotlarni esda olib qolish, saqlash va qayta yodga tushirish, jumladan, insonning genetik va orttirilgan tajribasidan tashkil topgan obrazli-tasavvurdan iborat.

Xotira tafakkur singari nutqiy faoliyat rivojlanganligini belgilovchi yetakchi ruhiy funksiyalardan biri hisoblanadi.

Mazkur birlik komponentlaridan birining buzilishi yoki rivojlanmaganligi koʻpincha boshqa buzilishlarga sabab boʻladi.

II Bob. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqiy xotirasining o'ziga xos xususiyatlari

1. Tadqiqot va uni tashkil etish metodikasi

Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni tadqiq etishning dolzarb muammolaridan biri mazkur nuqsonni oliy psixik jarayonlarning genezisi, tuzilishi va faoliyati haqidagi zamonaviy tasavvurlarga asoslangan tizimli yondashuv nuqtai nazaridan tashxis etish va korreksiyalash usullarini yanada takomillashtirish hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqiy va nutqiy bo'lmagan funksiyalarni korreksiyalashning yanada samarali yo'llari va metodlarini izlash maqsadida mnestik jarayonlarning holatini maqsadga yo'naltirilgan holda o'rganish zaruriyati muqarrar.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tadqiq etish muammolari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar (G.I.Jarenkova, K.S.Lebedinskiy, R.YE.Levina, V.I.Lubovskiy, A.R.Luriya, I.F.Markovskaya, YE.M.Mastyukova, L.G. Smirnova, O.N.Usanova va b.) quyidagilarni ta'kidlaydilar:

1. Bolalarda oliy psixik jarayonlarning holatini o'z vaqtida va to'g'ri diagnostik tekshirish zaruriyatini, ruhiy, jumladan nutqiy rivojlanganlikni o'rganishga tizimli yondashuvni amalga oshirish.

2. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni sifatli tekshirish u yoki bu alohida jarayonlarnigina emas, balki bolaning barcha ruhiy jarayonlari va barcha faoliyat shakllarini tekshirishni talab etadi.

3. Tekshirish bolada malakalarning shakllanishi hamda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi davomida aniqlangan qiyinchiliklarni qayd etish bilan yakunlanmay, mazkur qiyinchilik va nuqsonlarning mexanizmi va sabablarini aniqlash yo'li bilan differensiallashgan tashxis qo'yish imkonini beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan talablar bajarilgan holatdagina aniqlangan nuqson mexanizmiga mos, nutqiy nuqson, shuningdek buzilgan va saqlangan boshqa oliy psixik jarayonlarni inobatga olgan holda korreksion ta'lim dasturini ishlab chiqish

imkoniyati tugʻiladi. Bunda nuqsonlarni bartaraf etish tizimi va usullari bir xilda boʻlmaydi (L.S.Svetkova) (213).

Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarni tekshirish metodikasi bolada mavjud - ruhiy, tibbiy-fiziologik, neyropsixologik nuqsonlarning turli jihatlarini tahlil etishni nazarda tutadi. Har bir jihat nuqsonning kelib chiqishi va tuzilishini tushunishda uning umumiy koʻrinishiga oʻzining hissasini qoʻshadi.

Buzilgan funksiyaning va kompensator jihatlarining holatini kompleks baholash imkonini beruvchi A.R.Luriya va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan bolalarni neyropsixologik tekshirish metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan (T.V.Axutina, T.A.Fotekova, L.S.Svetkova) (24,173, 176, 212). Metodika bolalarda oliy psixik jarayonlarning shakllanishi, rivojlanishining zamonaviy neyropsixologik va umumpsixologik konsepsiyalariga asoslangan boʻlib, u yoki bu buzilgan funksiyani ajratilgan holda emas, balki boshqa oliy psixik funksiyalar bilan birgalikda oʻzaro aloqada oʻrganish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning toʻliq rivojlanmaganligini bartaraf etishning samarali yoʻllarini izlash tekshirishning diagnostik usullarini konstatatsiya etishni talab etib, oʻrganilayotgan bolalar toifasida mavjud buzilishlarning tuzilishini tizimli tahlil etish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha yoshdagi nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalar eshituv nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida rivojlantirish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarda xotira jarayonini oʻrganish uchun diagnostik usul kompleksini ishlab chiqish.
2. Tadqiqot natijalarini sifat tahlilini amalga oshirish mezonlarini ishlab chiqish.
3. Taʼkidlovchi tadqiqotni amalga oshirish va uning natijalarini miqdor-sifat tahlilini amalga oshirish.

Belgilangan maqsadga erishish uchun uch bosqichdan iborat diagnostik dastur ishlab chiqildi: anamnestik maʼlumotlarni toʻplash va tahlil etish, logopedik

tekshiruv, tajriba guruhi va nazorat guruhidagi bolalar eshituv nutqiy xotirasini qiyosiy tadqiq etish.

Tadqiqot bosqichlari

1 bosqich. Anamnestik ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish tibbiy, psixologik, pedagogik hujjatlarni o'rganish, ota-onalar bilan birgalikdagi suhbat asosida amalga oshirildi.

Eksperimental tadqiqot tibbiy hujjatlarni: nevropatolog, otolaringolog, okulist, pediater va ortopedning xulosalarini o'rganish va tahlil etishdan boshlandi. Shuningdek logopedik tekshiruv natijalari va logoped xulosalari o'rganildi va tahlil etildi. Olingan natijalar umumlashtirildi va jadval ko'rinishida taqdim etildi (1 jadval).

Logoped hamda tarbiyachi bilan olib borilgan suhbat yordamida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ijtimoiy holati, yashash sharoitlari, tarbiyasi, oiladagi o'zaro munosabatlar haqida ma'lumot olish imkoniga ega bo'ldik.

2 bosqich. Logopedik tekshiruv bolalarning bog'langan nutqini o'rganish maqsadida o'tkazilib, u V.K.Vorobyeva, V.P.Gluxov (43, 56) tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarga asoslangan¹⁸. Tekshiruv ishlari sokin sharoit muhitida, bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, 15-20 daqiqa davomida, bola uchun tabiiy, tanish bo'lgan muhitni yaratish maqsadida logoped xonasida, logoped ishtirokida amalga oshirildi. Logopedik tekshiruv davomida bizni matn mazmunining anglanganlik darajasi, uning butunligi va bog'langanligi, til vositalarining qo'llanilishi qiziqtirib, nutq mahsulining miqdoriga alohida e'tibor qaratildi. Tekshiruv bolalarning bog'langan bayonning turli ko'rinishlarini – yakka shakldan to shaxsiy ijod elementlari bo'lgan hikoyani tuza olish imkoniyatini aniqlashga yo'naltirildi. Bolalarning tanish bo'lgan badiiy matn, ko'ruv orqali idrok etilgan syujetli vaziyat mazmunini, shuningdek, o'z hayotiy taassurotlari va shaxsiy fikrlarini yetkazib berish qobiliyati aniqlandi.

¹⁸ Глухов В.П. Формирование связной речи детей дошкольного возраста с общим речевым недоразвитием, Изд. 2е М.:, 2004.-185 с

3 bosqich. Tajriba guruhi va nazorat guruhidagi bolalar mnestik jarayonlarini qiyosiy tadqiq etish.

Bolalar eshituv nutqiy xotirasini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida A.R.Luriya tomonidan ishlab chiqilgan "10 so'zni yod olish", "6 so'z", "Uch so'zdan iborat ikki guruh", "Jumlalarni yodda olib qolmoq", "Hikoyani eslab qolmoq" metodikalarni o'z ichiga olgan, hamda L.S.Svetkova tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan diagnostik kompleks ishlab chiqildi. Eksperiment davomida Toshkent shahar Chilonzor tumani Xalq Ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi "Marvarid" nomli 368-maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilaridan 20 nafar 5-6 yoshli nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar (tajriba guruhi) va Toshkent shahar Chilonzor tumani Xalq Ta'limi tasarrufidagi 350 maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilaridan 20 nafar 5-6 yoshli (nazorat guruhi) bolalar ishtirok etdilar.

"10 so'zni yod olish" metodikasi

Maqsad: Metodika ma'lum miqdordagi so'zlarni ehtiyoriy yodda olib qolishning hajmi va tezligini aniqlashga qaratilgan. Metodikani qo'llash bolaning eshituv nutqiy material bilan maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatli ishlash imkoniyati haqida qo'shimcha imkoniyat beradi.

Bolalar e'tiboriga ular uchun yaxshi tanish, talaffuz etish uchun murakkab bo'lmagan 10 so'z (mushuk, koptok, olma, quyosh, daraxt, tulki, non, qalam, sut, avtobus) taklif etilib, mazkur so'zlarni diqqat bilan tinglash, so'ngra esa imkon qadar ko'proq so'zlarni takrorlash talab etildi. So'zlar besh marttaga qadar takrorlandi. Har yangi urinishda zaruriyat bo'lgan hollarda topshiriqni bajarishga doir ko'rsatmalar aniqlashtirildi. Topshiriq ilk bor taklif etilgandan keyingi bevosita xotiraning hajmi baholandi.

Bayonnomada so'zlar miqdori, ularning ketma-ketligi belgilanib borildi.

"6 so'z" metodikasi

Maqsad: Metodika so'zlarning taklif etilgan ketma-ketligini xotirada saqlab qola olish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan.

Bola e'tiboriga 6 so'z (baliq, osmon, mushuk, chelak, o'rdak, daraxt) taklif etilib, mazkur so'zlarni berilgan ketma-ketlikda takrorlash so'raldi. Agarda bola topshiriqni bajarishga qiynalsa, uning e'tiboriga so'zlar ketma-ketligi qayta havola etildi.

Bayonnomada qayta takrorlangan so'zlarning umumiy miqdori va ularning ketma ketligi belgilab berildi. Literal va verbal parafaziyalar, perseveratsiya, komtaminatsiyalar belgilandi. 20-30 daqiqalik tanaffusdan so'ng bolaga so'zlarni taklif etilgan ketma-ketlikda yodga olish taklif etildi. Olingan ma'lumotlar tahlili natijasida taklif etilgan 6 so'zni ketma-ketlikda yodda olib qolish dinamikasi, mazkur topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan takrorlashlar hajmi va miqdori aniqlandi.

“Uch so‘zdan iborat ikki guruh” metodikasi. Maqsad: Eshituv nutqiy yodda saqlab qolishning tezligi va hajmini aniqlashga qaratilgan.

1-bosqich. Bolaga dastlab birinchi guruh (tun, igna, yong'oq), so'ngra ikkinchi guruh (uy, quyon, o'rmon) so'zlarini tinglash va takrorlash taklif etildi.

2-bosqich. To'liq hajmda va berilgan ketma-ketlikda so'zlar guruhlariga ko'ra takrorlangach, boladan qanday so'zlarni avval, qanday so'zlarni esa keyin esga olgani so'raladi.

Ko'rsatma 1a. Hozir sen bilan so'zlarni yod olamiz. Dastlab men so'zlarni aytaman, sen diqqat bilan tinglaysan. So'ng men aytgan ketma-ketlikda so'zlarni takrorlaysan. Kel birgalikda urinib ko'ramiz: “tun, igna, yong'oq”. Bola takrorlaydi.

Ko'rsatma 1b. Endi esa boshqa so'zlarni ham tingla va takrorla: “uy, quyon, o'rmon”. Bola takrorlaydi.

Ko'rsatma 2a. Endi sen dastlab yodingda olib qolgan so'zlarni takrorla. Ular qanday so'zlar edi?

Ko'rsatma 2b. Endi esa yodingdagi qolgan so'zlarni takrorla.

Agarda bola so'zlarni guruhlariga ajrata olmasa, “yodingda qanday so'zlar qoldi?” ko'rinishidagi nisbatan yengil savol berildi.

Topshiriqning noto‘liq bajarilishi holatida (so‘zlarning guruhlar bo‘yicha aralashtirib yuborilishi, so‘zlar miqdorining to‘liq emasligi, so‘zlar ketma-ketligining buzilishi) so‘zlar ikki guruhga ajratilgan holatda to‘rt marta qadar qayta takrorlandi.

25-30 daqiqalik tanaffusdan so‘ng so‘zlarni guruhlarga ajratgan holda yodga olish so‘raldi.

Eksperimental ma‘lumotlar tahlilida quyidagi jihatlar e‘tiborga olindi:

- birinchi hamda ikkinchi guruhdagi so‘zlar hajmi va ketma ketligining saqlanganligi;

- yodda olib qolish va takrorlashning aniqligi;
- tormozlanish holatlarining kuzatilishi, interferensiy ning ta‘hiri;
- yodda olib qolish dinamikasi

Olingan ma‘lumotlar tahlili natijasida xatolar xarakteri, yo‘l qo‘yilgan xatolar miqdori aniqlandi. Shu tarzda metodikani bajarish samaradorligi aniqlandi.

“Jumlalarni yodda olib qolmoq” metodikasi

Maqsad: Og‘zaki ko‘rsatmalarni xotirada saqlashda og‘zaki materiallarni ma‘nosi bo‘yicha tuzilmasining ta‘sirini aniqlashga qaratilgan.

Bolaga bir-biridan so‘zlar miqdoriga ko‘ra farq qiladigan to‘rt gapni (5-9 tizimli grammatik murakkablikdagi so‘zlar) tinglash va takrorlash taklif etiladi (S.B.Yakovlev, 1988).

1 namuna. Bola qarmoqda daryodan baliq tutmoqda.

2 namuna. Oq kabutar osmon uzra parvoz qildi.

3 namuna. Ko‘m ko‘k yaylovda quylar va qo‘zilar podasi o‘tlamoqda.

4 namuna. Akmal koptokni zarba bilan tepib darvozaga gol urdi.

Ko‘rsatma 1. Gapni tingla va yodga olib qol.

Gap o‘qib eshittiriladi.

Ko‘rsatma 2. Gapni takrorla.

Javob belgilab boriladi. Topshiriq to‘liq bajarilmagan holatlarda gap uch marta qadar takrorlandi.

Olingan ma'lumotlar tahlili natijasida grammatik xatolar, gapning qisqartirilgan sintaksik strukturasi, soʻzlarning inversiyasi, parafaziya belgilanib borildi.

20-30 daqiqalik tanaffusdan soʻng barcha gaplarni yodga olish soʻraldi.

“Hikoyani eslab qolmoq” metodikasi.

Maqsad: Bogʻlangan nutqning shakllanganlik darajasini aniqlash (V.K.Vorobyeva, V.P.Gluxov metodikasiga muvofiq).

Bolaga hikoyani tinglash va qayta soʻzlab berish taklif etiladi.

Koʻrsatma: Men senga qisqa hikoyani soʻzlab beraman, sen uni yodda saqlab qolishga harakat qil.

Hikoya toʻliq boʻlmagan holatda bolaning faol va passiv xotirasini baholash maqsadida yoʻnaltiruvchi savollar berildi.

Tekshirish davomida bizlarni matn mazmunining anglanganlik darajasi, toʻliqligi va bogʻlanganligi, til vositalarining qoʻllanilishi qiziqtirib, nutq mahsulining hajmiga alohida ahamiyat berildi.

Olingan tekshiruv natijalarini tahlil etishda biz uch asosiy mezonga tayandik:

1. Matnning yaxlitligi.
2. Matnning bogʻlanganligi.
3. Nutqiy vositalarning qoʻllanilishi.

Matnning yaxlitligi. Nutqiy bayonning hajmi (soʻzlarning umumiy soni, gaplarning soni); ketma-ketligi (voqealarning mantiqan bogʻlanganligi); aniqligi (muhim jihatlarning tasvirlanishi).

Matnning bogʻlanganligi. Bayon syujetining tuzilishi, matnda tizimli elementlarning mavjudligi (kirish, asosiy qism, yakuniy qism), leksik-grammatik vositalar, jummlalararo bogʻlash usullari.

Nutqiy vositalarning qoʻllanilishi. Bayonning leksik tarkibi, sintaksik qurilmalarni qurish xususiyatlari.

Mazkur mezonlarni hisobga olib V.K.Vorobyeva (2008) tomonidan matnni qurishda muvaffaqiyatning to'rt darajasi ajratib berilgan.¹⁹

Har bir darajani sifat tavsifi asosida ularning har biriga mos kelgan ko'nikmalar aniqlandi.

I daraja og'zaki bayonda ma'lumot dasturini yetarlicha tasvirlay olish darajasi

II daraja bayonda ma'lumot dasturini nisbatan tasvirlay olish darajasi

III daraja qayta hikoyada ma'lumot dasturini qisman tasvirlay olish darajasi

IV daraja hikoyada ma'lumot dasturini umuman tasvirlay olmaslik darajasi

Qayta hikoya uchun matn

“Kuch inoqlikda”

Chumoli o'z yo'lida bo'g'doy donini ko'rdi. Uni iniga olib ketmoqchi bo'ldi. Lekin chumoli uni ko'tara olmadi. Shundan keyin o'rtoqlarini yordamga chaqirdi. Ular birlashib, donni inlariga olib ketdilar.

2. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni tibbiy, psixologik, pedagogik hujjatlarini o'rganish va ularning natijalari

Tibbiy, psixologik hamda pedagogik hujjatlarni o'rganish, ota-onalar bilan olib borilgan suhbat asosida anamnestik ma'lumotlar tahlilining natijalari nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar anamnezi turli murakkabliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Asosan bular homilaning ona qornida rivojlanishi davrida, tug'ruq vaqtida va erta postnatal davrda turli salbiy omillar natijasida bosh miyaning perinatal jarohatlariga ega bo'lgan, shuningdek markaziy asab tizimining organik jarohatlanishining qoldiq asoratlariga ega bo'lgan bolalardir. Anamnestik ma'lumotlar tahlilining natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning tibbiy hujjatlarida quyidagi nevrologik tashxis turlari kuzatildi:

- ichki miya bosimining gipertenziya sindromi

¹⁹ Хрестоматия по логопедии. 2 том. М.: “Педагогика”, 1997 г. 87 с.

- piramida shaklidagi yetishmovchilik
- turli genezdagi bosh miyaning perinatal zararlanishi
- somatik patologiya bilan murakkablashgan perinatal jarohat.

Shuningdek, tekshiruv davrida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar tibbiy xulosalarida tayanch harakat apparatining buzilishlari, ko'ruv nuqsonlari, dizbakterioz, shamollash kasalliklari, yurak xastaliklari, umumiy somatik zaiflik singari qator qo'shimcha kasalliklar aniqlandi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar oilasining ijtimoiy o'ziga xosliklarini o'rganishda noto'liq oilalar, otaning ichkilikbozlikka berilganligi, notinch oilalar, bola tarbiyasida pedagogik qarovsizlik singari salbiy omillar aniqlandi.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning anamnestik ma'lumotlari

1-jadval

Rivojlanish davrlari	Omillar	Foiz ko'rsatkichi
prenatal	•homiladorlik toksikozlari	48%
	•ona va homilaning rezus-faktor bo'yicha o'zaro mos kelishi	2%
	•homila gipoksiyasi	9%
	•otaning ichkilikka berilganligi	6%
	•asab mushak tizimining nasliy kasallanganligi	7%
	•homilaning tushish xavfi	18%
natal	•vaqtdan ilgari tug'ruq	24%
	•asfiksiya	35%
	•suvsiz tug'ruq	7%
	•tezkor tug'ruq	8%
	•Keserova jarrohlik yo'li bilan amalga oshirilgan tug'ruq	26%

postnatal	•tug‘ilgandan keyingi somatik kasalliklar	58%
	•virusli kasalliklar bilan tez-tez kasallanish	32%
	•yurak qon-tomir kasalliklari	10%

3. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini bog‘langan nutq asosida tekshirish

Logopedik tekshiruv bolalarning bog‘langan nutqini o‘rganish maqsadida o‘tkazilib, u V.K.Vorobyeva, V.P.Gluxov tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarga asoslangan.²⁰ Tekshiruv ishlari sokin sharoit muhitida, bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, 15-20 daqiqa davomida, bola uchun tabiiy, tanish bo‘lgan muhitni yaratish maqsadida logoped xonasida, logoped ishtirokida amalga oshirildi. Logopedik tekshiruv davomida bizni matn mazmunining anglanganlik darajasi, uning butunligi va bog‘langanligi, til vositalarining qo‘llanilishi qiziqtirib, nutq mahsulining miqdoriga alohida e‘tibor qaratildi. Tekshiruv bolalarning bog‘langan bayonning turli ko‘rinishlarini – yakka shakldan to shaxsiy ijod elementlari bo‘lgan hikoyani tuza olish imkoniyatini aniqlashga yo‘naltirildi. Bolalarning tanish bo‘lgan badiiy matn, ko‘ruv orqali idrok etilgan syujetli vaziyat mazmunini, shuningdek, o‘z hayotiy taassurotlari va shaxsiy fikrlarini yetkazib berish qobiliyati aniqlandi. Logopedik tekshiruv yettita ketma-ket eksperimental topshiriqlarni o‘z ichiga olib, yakka eksperiment usuli bilan olib borildi. Eksperiment davomida Toshkent shahar Chilonzor tumani Xalq Ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi tasarrufidagi “Marvarid” nomli 368-maxsus maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnaydigan 20 nafar 5-6 yoshli nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar ishtirok etdilar.

Birinchi topshiriqda bolalardan (“Aytingchi, bu yerda nima tasvirlangan?” degan savolga) sodda harakatlarni tasvirlovchi (bola kitob o‘qimoqda, qiz gullarga suv quymoqda, bola chana uchmoqda, bola kubiklardan uycha qurmoqda, qiz jo‘jalarga don bermoqda) beshta alohida rasmlar asosida gap tuzishlari so‘raldi.

²⁰ Воробьева В.К. Методика развития связной речи у детей с системным недоразвитием речи: учеб. Пособие/ Воробьева В.К.-М: АСТ: Астрель.

Topshiriq bolalarning tasvirlangan harakatlarni adekvat ifodalovchi jummalarni tuzish ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, ya'ni ma'lum semantika sintaktik vazifani hal etishdan iborat.

Ikkinchi topshiriq uchta rasm asosida (qiz, bog', savat) gap tuzishdan iborat bo'lib, u bolalarning predmetlar o'rtasidagi mantiqiy-mazmuniy munosabatlarni o'rnatish va ularni yakunlangan jumla bayon ko'rinishida verballashtirish qobiliyatlarini aniqlashga qaratildi.

Uchinchi topshiriqning maqsadi bolalarning tuzilish jihatidan sodda va hajmiga ko'ra katta bo'lmagan tanish "Bo'g'irsoq" ertagi matnini so'zlab bera olish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

To'rtinchi topshiriq voqeaband rasmlar seriyasi ("Turna va tulki") asosida hikoya tuzishdan iborat.

Beshinchi topshiriq "Bizning maydonchada" mavzusi asosida hikoya tuzish bo'lib, u bolalarning o'z hayotiy taassurotlarini bayon etishda jumlati va monologik nutqni qo'llashning individual darajasi va o'ziga xosliklarini aniqlashga qaratildi. Topshiriqni yengillashtirish maqsadida beshta savol topshiriqdan iborat hikoya rejasi berildi. Maydonchada nima bor, maydonchada bolalar nima bilan shug'ullanadilar, ular qanday o'yinlar o'ynaydilar, yoqtirgan o'yin va mashg'ulotlarni nomlash, qishda maydonchadagi o'yin va mashg'ulotlar haqida hikoya qilib berish taklif etiladi. Shundan so'ng bola alohida qismlar asosida o'z hikoyasini tuzadi. Har bir qism oldidan tegishli savol topshiriq takrorlanadi.

Keyingi ikki topshiriq bolalarning ijod elementlari bo'lgan hikoyalarni tuzish imkoniyatlarini va bunday topshiriqlarni bajarishda monologik nutqning o'ziga xosliklarini aniqlashga qaratildi.

Oltinchi topshiriqda bolalarga o'rmonda qizcha bilan bo'lgan biron-bir voqea haqida hikoya tuzish taklif etiladi. Dastlab tadqiqotchi savollari asosida uchta predmetli rasmga tayangan holda hikoya "ekspozitsiyasi" tuziladi.

Yettinchi topshiriq rasmga tayangan holda tayyor boshlanish asosida hikoyani yakunlash bo'lib, u bolalarning qo'yilgan ijodiy topshiriqni hal etish

imkoniyatlarini, hikoyani tuzishda taklif etilgan nutqiy va ko'rgazmali materialni qo'llay olish ko'nikmalarini aniqlashni o'z ichiga oldi.

Olingan logopedik tekshiruv natijalarini tahlil etishda biz uch asosiy mezonga tayandik:

1. Matnning yaxlitligi. Nutqiy bayonning hajmi (so'zlarning umumiy soni, gaplarning soni); ketma-ketligi (voqealarning mantiqan bog'langanligi); aniqligi (muhim jihatlarning tasvirlanishi).

2. Matnning bog'langanligi. Bayon syujetining tuzilishi, matnda tizimli elementlarning mavjudligi (kirish, asosiy qism, yakuniy qism), leksik-grammatik vositalar, jumllalararo bog'lash usullari.

3. Nutqiy vositalarning qo'llanilishi. Bayonning leksik tarkibi, sintaksik qurilmalarni qurish xususiyatlari.

Mazkur mezonlarni hisobga olib V.K.Vorobyeva (2008) tomonidan matnni qurishda muvaffaqiyatning to'rt darajasi ajratib berilgan:

I daraja og'zaki bayonda ma'lumot dasturini yetarlicha tasvirlay olish darajasi

II daraja bayonda ma'lumot dasturini nisbatan tasvirlay olish darajasi

III daraja qayta hikoyada ma'lumot dasturini qisman tasvirlay olish darajasi

IV daraja hikoyada ma'lumot dasturini umuman tasvirlay olmaslik darajasi

4. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni ta'kidlovchi eksperiment natijalarining tahlili

Yettita ketma-ket eksperimental topshiriqlarni o'z ichiga olgan logopedik tekshiruv yakka eksperiment usulida Toshkent shahar Chilonzor tumani Xalq Ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi "Marvarid" nomli 368-maxsus maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnaydigan 20 nafar 5-6 yoshli nutqi to'liq rivojlanmagan bolalari orasida olib borildi.

Sodda harakatlarni tasvirlovchi (bola kitob o'qimoqda, qiz gullarga suv quyimokda, bola chang'i uchmoqda, bola kubiklardan uycha qurmoqda, qiz

joʻjalarga don bermoqda) besh alohida rasmlar asosida gap tuzishga qaratilgan **birinchi topshiriq** natijalari shuni koʻrsatdiki, nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarning koʻpchiligi sodda tugallangan jumla darajasidagi bayonni mustaqil tuzishda qiyinchilik sezilar, buning natijasida esa, tasvirlangan harakatni nomlashni talab qiluvchi "Bola nima qilmoqda? Qizcha nima qilmoqda?" kabi qoʻshimcha savollar berish zaruriyati tugʻildi. Koʻpgina bolalarda soʻzlarning gapdagi bogʻliqligini buzilishiga sabab boʻluvchi soʻz shakllarini qoʻllashdagi xatoliklar, kerakli soʻzni izlab uzoq muddatli pauzalar, soʻzlar ketma-ketligining buzilishi kuzatildi. Tekshirilayotgan nutqi toʻliq rivojlanmagan 20 boladan 14 bolada turli darajada namoyon boʻlgan maʼno va sintaktik xarakterdagi qiyinchiliklar kuzatildi.

Masalan: Kubiklar bilan narsa yasavotti. (Joʻrayev Javohir, 5 yosh).

Uchta rasm asosida (qiz, savat, bogʻ) gap tuzishdan iborat **ikkinchi topshiriq** nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalar uchun yanada katta qiyinchilik tugʻdirdi. Barcha bolalarga "Qizcha nima qildi?" degan savol bilan murojat etilishiga qaramay, tekshirilayotgan bolalardan faqat uchtagina gapni har uchchala rasmlarning ketma-ketligi asosida mustaqil tarzda tuza oldi. Qolgan tekshiriluvchilarga tushirib qoldirilgan rasmlarni koʻrsatgan holda topshiriq qayta tushuntirildi, lekin topshiriq qayta takrorlangandan keyin ham 7 bola har uchchala maʼnodosh zanjirni hisobga olib jumla tuza olmadi. Koʻpchilik bolalarda yaqqol ifodalangan sintaktik qiyinchiliklar kuzatildi, 2 bola esa topshiriqni bajara olmadi.

Masalan: Qiz savat olib boqqa bordi. (Shoirov Bexruz, 5 yosh)

Turli shakldagi hikoyalarni tuzishga qaratilgan keyingi topshiriqlarni baholashda biz tomondan bolalarning hikoya qilish malakalarini egallaganlik darajalarini xarakterlovchi qator umumiy koʻrsatkichlar eʼtiborga olindi. Hikoya tuzishdagi mustaqillik darajasi, bayonning bogʻlanganligi, ketma-ketligi va toʻliqligi, asosiy materialga, yaʼni matnga, koʻrgazmali tasvirlangan syujetga va berilgan nutqiy topshiriqqa mazmun jihatidan mos kelishi, shuningdek jumlati nutqning oʻziga xosligi aniqlandi. Hikoya tuzish jarayonida bayon etishdagi toʻxtalishlar, uzoq muddatli pauzalar kabi qiyinchiliklar paydo boʻlgan hollarda

rag'batlantiruvchi, yunaltiruvchi va aniqlashtiruvchi ketma-ket savollar ko'rinishidagi yordamdan foydalanildi.

Tuzilishi jihatidan sodda va hajmiga ko'ra katta bo'lmagan tanish "Bo'g'irsoq" ertagi matnini so'zlab berishga qaratilgan **uchinchi topshiriq** natijalari shuni ko'rsatdiki, 20 boladan bittasi topshiriqni bajara olmadi, qolgan bolalar esa eksperimentatorning u yoki bu yordami bilan hikoyani tuza oldilar. Deyarli barcha bolalar ertak matnini so'zlab berishda jumlar yoki jumla qismlarini bir necha marta takrorladilar. Gaplar o'rtasidagi ma'no va sintaktik bog'liqlikning buzilganligi, fe'llarning tushirib qoldirilishi kabi bayon bog'liqligining buzilganligi kuzatildi. 8 bolada qayta hikoya tuzishdagi ma'no jihatdan xatoliklar, bog'liqlikning buzilganligi, matn qismlarining tushirib qoldirilishi kabi qiyinchiliklar yorqin ifodalangan xarakterga ega bo'ldi. Tekshirishlar bolalar tomonidan qo'llaniladigan jumlati nutqning quyi darajasini, ya'ni jumla miqdori, tuzilishi, til vositalarining kambag'alligini ko'rsatdi.

Masalan: Chol bilan kampir yashar ekan, menga bo'g'irsoq pishirib ber debdi. Un yo'q debdi. Gilamni tagini qarasang un chiqadi debdi. Bo'g'irsoq pishirib, sovusin deb, oynaga qo'yib qo'ysa, bo'g'irsoq ko'zlari ochilib, oyoqlari chiqib dumalab ketibdi... (Abduraxmonova Dilnura, 5 yosh).

"Turna va tulki" voqeaband rasmlar seriyasi asosida hikoya tuzishga qaratilgan to'rtinchi topshiriqda berilgan har to'rt rasm mazmuni dastlab tahlil etilib, tasvirlangan vaziyatdagi ba'zi muhim detallar aniqlashtirilishiga qaramay, barcha tekshiriluvchilar uchun bog'langan hikoyani mustaqil tarzda tuzish katta qiyinchilik tug'dirdi. Yordamchi savollar, tegishli rasm yoki aniq detalni ko'rsatish kabi yordam talab etildi. Barcha tekshiriluvchilar uchun bayondagi to'xtalishlar, hikoyani mustaqil ravishda davom ettirish kabi bir rasmdan ikkinchi rasmga o'tishdagi qiyinchiliklar xos bo'ldi.

Yuqorida aytib o'tilgan tekshiruv natijalarini nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda voqeaband rasmlar seriyasi asosida hikoya tuzish malakalarining yo'qligidan tashqari bu bolalarda diqqat, idrok, xotira jarayonlarining sustligi va mazkur jarayonlarning nutqiy faoliyat bilan yetarlicha koordinatsiyalashmaganligi

bilan tushuntirish mumkin. Bolalarning hikoyalarida rasmda tasvirlangan yoki tasvirlangan vaziyatdan kelib chiqadigan harakatlarni tushirib qoldirish, rasmlarni idrok etish doirasining torligi, ya'ni, birgina personaj harakatlarini tasvirlash kuzatildi. Bularning barchasi nutqiy faoliyat jarayonidagi diqqatning sustligidan dalolat beradi.

Ko'pgina hollarda hikoya mazmuni bilan tasvirlangan syujet mos kelmadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan 7 nafar bolaning hikoyasi personajning sodda harakatlarini nomlashdangina iborat bo'ldi.

Masalan: Turna mehmonga bordi, tulki ovqat berdi. Keyin tulki mehmonga bordi. (Samigjonov Dostonbek, 5 yosh).

"Turna va tulki" voqeaband rasmlar seriyasi asosida hikoya tuzishga qaratilgan topshiriq natijalari shundan dalolat berdiki, ko'pgina bolalar ko'rgazmali syujetni to'la va aniq tasvirlab berishda qiyinchilik sezdilar, syujetli vaziyatni ma'no jihatidan umumlashtira olmadilar.

Masalan: Turna bilan tulki uchrashibdi, tulki mehmonga chaqiribdi. Tulki ovqat berdi, u yemadi, keyin turna mehmonga chaqirdi. Tulki ovqatni yemadi. Ular ikki tomonga ketib qoldi. (Qodirova Muborak, 5 yosh)

Bir nafar tarbiyalanuvchi ko'rsatilgan yordamga qaramay topshiriqni umuman bajara olmadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan 8 nafar bola eksperimentatorning faol yordami bilan hikoyani tuza oldi. Qator hollarda hikoya savollarga javob berish asosida tuzilib, bog'langan hikoya xarakterini yo'qotdi.

"Bizning maydonchada" mavzusi asosida hikoya tarzida bolalarning o'z hayotiy taassurotlarini bayon etishlariga qaratilgan beshinchi topshiriq natijalariga ko'ra faqatgina taxminiy reja asosida berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoya tuzish nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun qiyinchilik tug'dirdi.

Topshiriq natijalari tuzilgan hikoyalarning mazmuni hamda shaxsiy nutq ko'rsatkichlariga ko'ra baholandi. Katta e'tibor bolalarning ko'rgazmasiz yoki matnga tayanmasdan tuzgan hikoyalarida qo'llanilgan jumlati nutqni tahlil etishga qaratildi.

Bolalar tomonidan tuzilgan hikoyalar tahlili shuni ko'rsatdiki, faqat nutqi to'liq rivojlanmagan 6 nafar bolagina hikoyaning har besh lavhasida jumlati javobdan foydalandi, ko'pgina bolalar esa hikoya tuzishga doir ko'rsatmalar berilganiga qaramay, bir yoki bir necha lavhalarda jumlati javoblar o'rniga predmetlar yoki harakatlarning nomlarini sanab o'tdilar. 4 nafar bola faqatgina bir-ikki lavhada jumlati javobdan foydalandi. Hikoyalarni tuzishda bolalar asosan 2-4 so'zdan iborat qisqa jumlatarni qo'lladilar. Bu bolalar hikoyalaridagi mavjud jumlatarning 72,5 % tashkil etdi. Ko'p hollarda noto'g'ri tuzilgan murakkab gaplar esa 33 % tashkil etdi. Bu jumlati nutqdan yetarli darajada foydalanilmaslikdan dalolat berib, o'z navbatida bolalarning keng bog'langan hikoyani tuzishlariga to'sqinlik qiladi.

Hikoyalar mazmunini baholashda biz tomondan berilgan mavzu yuzasidan u yoki bu ma'lumotni o'zida mujassamlashtirgan so'zlar miqdori hisobga olindi. Predmet yoki harakatni nomlash yoki ularning keng bayon etilishi kabi ma'lumot elementlari sonini aniqlash bola tomonidan mavzuning qay darajada to'liq ochib berganligini aniqlashga imkon berdi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar hikoyalarining o'rta miqdori 29 so'zga teng bo'ldi.

"Arg'imchoq bor, o'ynaymiz, o'tiramiz. Hamma bolalar o'ynaymiz..., qorbobolar qilaman". (Rozimurodova Sevinch, 5 yosh).

"Bizning maydonchada" mavzusi asosida bolalar hikoyalarining tahlili bizga bu topshiriqni bajarishdagi qiyinchiliklar rejalashtirish, bayondagi fikrni ifodalay olish, uning bajarilishini nazorat etishning shakllanmaganligi kabi nutqiy faoliyatning turli tomonlaridagi yetishmovchiliklar bilan asoslangan deb taxmin qilishimizga imkon berdi.

Bayon tuzishdagi asosiy qiyinchiliklar avvalo uning mazmunini rejalashtirish darajasida kuzatildi. Bu qiyinchiliklar bayon mavzusini tanlashda, bayon tizimidagi ma'lumotlar zanjirining ketma-ketligi, ularning bog'liqligini aniqlashda namoyon bo'ldi. (Masalan, "Yuguramiz... aylanamiz... koptok o'ynaymiz"). Rejalashtirish va nazorat etishdagi qiyinchiliklar bayondagi jumlaning ikkinchi

qismi mexanik tarzda jumlaning birinchi qismiga mazmun va tuzilishi jihatidan mos kelmagan tarzda qo'shib ketishiga olib keldi.

Masalan: "Men o'yinlarni yaxshi ko'raman. qor", "Qorbobo. o'ynaymiz". (Shukurullayev Firdavs, 5 yosh)

Ko'p hollarda keng ma'lumot berishga urinishda muhim ma'nodosh zanjir tushirib qoldirilib, ma'lumot tushunarsiz bo'ldi.

Bayon tuzishdagi ayniqsa, fazoviy, predmetlararo munosabatlarni ifodalashdagi yetishmovchiliklarga grammatik hamda sintaksik buzilishlar sabab bo'lib, nutqi to'liq rivojlanmagan 8 nafar bolada hikoya mazmunining kambag'alligi, qo'llanilayotgan jumlati nutqning quyi darajasi, qo'pol agrammatizmlar kabi buzilishlar yorqin ifodalangan kompleks xarakterga ega bo'ldi.

Masalan: "Koptok, narvon bor, osiladigan bor, gaplashamiz, o'ynaymiz, koptok otish, quvlamachoq, qor otish, qorbobo yasash..." (Nurmatov Bexruz, 5 yosh)

Shunday qilib, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'pchiligi topshiriqni yengillashtirish maqsadida berilgan beshta savol topshiriqdan iborat hikoya rejasiga qaramay hikoya tuzishda u yoki bu darajada ifodalangan qiyinchiliklarga duch keldilar.

O'rmonda qizcha bilan bo'lgan biron-bir voqea haqida hikoya tuzish hamda rasmga tayangan holda tayyor boshlanish asosida ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarish nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun yanada murakkab bo'ldi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'pchiligi topshiriqni bajara olmadilar yoki topshiriqdagi berilgan vazifani noadekvat ravishda bajardilar. Asosiy qiyinchiliklar ijodiy topshiriqni bajarishda bo'lgani kabi, ketma-ketlikda bog'langan hikoya shaklidagi fikrni ifoda etishda ham namoyon bo'ldi.

Uchta predmetli rasmga tayangan holda o'rmonda qizcha bilan bo'lgan voqea haqida gapirib berish topshirig'ini nutqi to'liq rivojlanmagan 20 nafar boladan 6 bola mustaqil ravishda bajargan bo'lsalar, b nafar bola topshiriqni kichik yordam asosida bajara oldilar, 8 bola eksperimentatorning yo'naltiruvchi savollari ko'rinishidagi faol yordam asosida topshiriqni bajardilar.

Rasmga tayangan holda tayyor boshlanish asosida hikoyani yakunlab berish, ya'ni "hikoyani yakunlash" metodikasi quyidagicha qo'llanildi. Bolaga hikoyadagi voqealarning eng qizg'in lavhasi tasvirlangan rasm taklif etildi. (Bola daraxt tepasiga chiqib olgan, pastda daraxt ostida to'rt bo'ri. Bo'rilaridan biri daraxtga chiqishga harakat qilmokda, uzoqda qishloq ko'rinmoqda, voqea qishda sodir bo'lmoqda). Rasm mazmuni tahlil etilgandan so'ng bolaga yakunlanmagan hikoyaning matni o'qib eshittirildi va boladan uning yakunini o'ylab topish so'raldi. Bola tomonidan tuzilgan hikoya yakunini baholashda uning syujetli yechimi, mantiqiy ketma-ketlikka amal qilinganligi, hikoya mazmuniga mos kelganlik darajasi e'tiborga olindi.

Ushbu topshiriqni bajarishdagi nutqi to'liq rivojlanmagan 20 boladan 6 bola berilgan topshiriqni taklif etilgan matn yakunini takrorlagan yoki rasmda tasvirlangan predmet va harakatlarni nomlagan holda bajardilar. Nutqi to'liq rivojlanmagan 14 nafar bolaga hikoyaning yakunini tuzishda rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi savollar ko'rinishidagi yordam talab etildi.

Bolalar tomonidan tuzilgan hikoyalarning mazmun jihatlarini baholashda yaratilgan obrazlarning mikdor ko'rsatkichi mezon sifatida xizmat qildi. Obraz tushunchasi ostida yangi ishtirokchilar, yangi bajarilgan harakatlar, syujet rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan predmetlar va harakatlar nazarda tutildi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan 4 nafar bola hikoyalarida alohida obrazlar asosiy syujet mazmuni bilan bog'lanmadi yoki hikoya voqealaridan tushurib qoldirildi. Ko'pchilik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar o'z hikoyalariga o'qib eshittirilgan matndagi hodisalarni qo'shib yubordilar, bu bayonning mantiqan buzilishiga olib keldi.

Masalan: "Keyin burilarning jahli chiqib daraxtga chiqmoqchi bo'ldilar... Bo'rilar daraxtni o'rab olishdi... Keyin bola qo'rqib daraxtga chiqib oldi. (Karimov Sharofiddin, 5 yosh)

Bularning barchasi ijodiy topshiriqni bajarish nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun murakkab ekanligidan, fikrni bog'langan ketma-ketlikdagi ma'lumot sifatida bayon eta olmasliklaridan dalolat beradi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar guruhining katta qismi hikoyani bir necha variantdan iborat bir turdagi elementar sxema asosida tuzdilar. ("Bo'rilar ketdi, bola uyiga qaytdi" yoki "Bo'rilar daraxtga chiqa olmadilar, keyin ketdilar, bola uyiga qaytdi"). Faqatgina uch hikoyada syujetning elementlar sxemasini to'ldiruvchi alohida qo'shimcha obrazlarni uchrata oldik.

Misol: "Bitta bo'ri bolani yeb qo'ymoqchi bo'ldi. Bola qo'rqib ketib balandga chiqib oldi. Keyin bo'ri daraxtga chiqmoqchi edi, chiqa olmay yiqilib tushdi".(Odilova Gulnoza, 5 yosh)

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar hikoyalarining o'n to'rttasida bayon bog'liqligining buzilganligi, ikkitasida bayon ketma-ketligining buzilganligi aniqlandi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar jumlati nutqni egallaganlikning quyi darajasiga ega bo'lganliklari bois, bu ularning to'laqonli ma'lumot tuzish imkoniyatlarini chegaralaydi. Hikoya yakunini tuzar ekanlar, ular asosan 1-4 so'zdan iborat qisqa jummalarni qo'llaydilar. Bu bolalar hikoyalaridagi mavjud jumlalarining 72 % tashkil etdi.

Hikoyaning turli shakllarida bolalar tomonidan yo'l qo'yilgan agrammatizmni o'rganish fazoviy, vaqt va boshqa munosabatlarni ifodalashda ko'makchi kelishik konstruksiyalarni qo'llashdagi ko'p sonli xatolarni ko'rsatdi.

Xatolarning eng ko'p soni gaplarni tuzishda uchrab, bu xatolar yoyiq va murakkab gaplarni qo'llashda ayniqsa namoyon bo'ldi. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda gaplarni tuzish hamda fe'l, fe'lning hozirgi va o'tgan zamondagi shakllarini qo'llashda xatolar soni yanada oshdi. Bunday holatni nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda diqqatning bayondan ijodiy topshiriqni bajarishga kuchishining murakkabligi bilan asoslash mumkin.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar monologik nutqining hikoya qilib berish jarayonidagi holatini o'rganish natijalari 2-jadvalda ko'rsatilgan.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligining uchinchi darajasidagi bolalarda bog'langan nutq rivojlanishining sezilarli ortda qolishi asosida nutqiy faoliyatning mazkur turini egallanganlik malakalari o'rtasida farqlar kuzatildi. Bajarilgan

topshiriq natijalarini solishtirish bog‘langan nutqning turli tomonlari va hikoya qilish malakalarining shakllanganlik darajasiga ko‘ra bolalarni to‘rt guruhga ajratish imkonini berdi (V.K.Vorobyeva metodikasiga muvofiq).

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini bog‘langan nutq asosida tekshirish natijalari

2-jadval

№	Topshiriq turi	20 nafar	Mustaqil ravishda	Kichik yordam asosida	Eksperimen tatorning faol yordamida asosida	Bajara olmadi
1	Sodda harakatlarni tasvirlovchi rasm asosida gap tuzish	20 nafar nutqi to‘liq rivojlanmagan bola	12 (60%)	8 (40%)	-	-
2	Uch rasm asosida gap tuzish		5 (25%)	11 (55%)	4 (20%)	-
3	Ertak matnini so‘zlab berish		6 (30%)	9 (45%)	4 (20%)	-
4	Voqeaband rasmlar seriyasi asosida hikoya tuzish		4 (20%)	6 (30%)	8 (40%)	2 (10%)
5	Tasvirlovchi hikoya tuzish		6 (30%)	14 (70%)	-	-
6	Uch predmetli rasmga tayangan holda hikoya tuzish		3 (15%)	11 (55%)	6 (30%)	-
7	Tayyor boshlanish asosida hikoyani yakunlash		2 (10%)	12 (60%)	4 (20%)	2 (10%)

I guruh. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar eshituv idroki asosida matnni to‘liq va bog‘langan holda qayta hikoya qilib berish imkoniyatiga ega bo‘lmadilar. Asosiy ma’no belgilari tushirib qoldirilib, faqatgina alohida belgilar bayon etilib, berilayotgan ma’lumotlar butunligi buzildi. Gaplar tuzilishi jihatidan noto‘liq, agrammatizmlarga boy bo‘lib, ma’no jihatidan ham, sintaksik jihatdan ham o‘zaro

sust bog‘langan. Mant hajmi qisqa. Tekshiruv davomida mazkur bolalar hech qanday qiziqishni namoyon etmadilar. Mazkur guruhga mansub bolalar qayta hikoya topshirig‘ini uddala olmay, monologik nutq eksperimentator ishtirokidagi dialog tusini oldi. Hikoya g‘oyasi eksperimentatorning yordamiga qaramay tushunarsizligicha qoldi.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar hikoyani ketma ketlikda bayon etar ekanlar, vaziyatni noto‘g‘ri tasvirladilar. Qayta hikoyada ba’zi hatti harakat elementlari tushirib qoldirilib, asosan umumlashtiruvchi syujetga ega bo‘lmagan voqealar sanab o‘tildi. Ketma ketlikdagi hikoya uchun yo‘naltiruvchi savollar stimul sifatida xizmat qildi. Bolalar lug‘at boyligining kambag‘alligi yorqin ifodalangan. Ba’zi bolalar so‘zlarning tovush tarkibini buzib talaffuz etadilar. Xatolarning katta miqdori fazoviy va vaqt munosabatlarini ifodalash bilan bog‘liq bo‘ldi.

II guruh. Bolalar matn mazmunini qisman yoritganliklari bois, ma’lumotlarning yaxlitligi buzildi. Matn mazmuni tushunarsiz tus oladi. Gaplarning tuzilishi jihatidan noto‘liqligi, ma’no birligini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan so‘zlarning tushirib qoldirilishi matn mazmuni bog‘liqligining buzilganligining asosiy ko‘rsatkichi hisoblandi. Gaplarning ma’lum qismi noto‘liq, kommunikativ jihatdan sust. Ba’zi hollarda jumlarlar amorf xarakter kasb etib, so‘zlarning takrorlanishi, so‘zlar o‘rnining almashtirilishi kuzatiladi. Shu tarzda matn butunligining buzilishi ma’no bog‘liqligining buzilishi bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Agrammatizmlar mavjud.

III guruh. Bolalarda bog‘langan bayon etish imkoniyatining nisbatan shakllanganligi aniqlandi. Bolalar ma’lumotlar dasturining elementlarini, barcha tayanch ma’no jihatlarini nisbatan to‘liq bayon etdilar, bu esa ma’lumotlarning nisbiy to‘liqligini ta’minladi. Matn hajmi va kompozitsiyasini taqqoslashda ba’zi semantik jihatdan zarur gaplarning tushirib qoldirilishi aniqlandi, biroq mazkur tushirib qoldirishlar matn ma’lumotlarining nisbiy to‘liqligini buzmedi. Jumlararo bog‘lanish vositalarining tanlanishi biroz chegaralangan, kommunikativ jihatdan sust gaplar ustunlikka ega. Lug‘at boyligi matnni ifodalash

uchun yetarli ekanligiga qaramay, predmet mazmun munosabatlarining barcha murakkabliklari yetarli darajada yoritilmagan. Agrammatik konstruksiyalar kuzatildi. Soʻzlarning ketma ketligi buzildi, gap boʻlaklarining tushirib qoldirilishi aniqlandi, zarur soʻzlarni izlab topishda qiyinchiliklar tugʻildi.

Mazkur darajada bolalar hikoyaning mazmunini chuqur anglab yetmadilar, bunda kattalarning yordami bayon sxemasining shakllanish jarayonini yengillashtirdi. Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarning bogʻlangan nutq koʻnikmalarini nisbatan shakllangan deb aytish mumkin.

IV guruhga nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarni kiritish imkoniga ega boʻlmadik.

Matnlarni bayon etishda bayon mazmunining toʻliqligi va bogʻlanganligining buzilganligidan tashqari lugʻat boyligining kambagʻalligi, gaplarni tuzishdagi qiyinchiliklar aniqlandi.

Bogʻlangan nutqning aniqlangan oʻziga xosliklaridan kelib chiqqan holda nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarda keng nutqiy bayonni qurish koʻnikmasini rivojlantirishga doir maqsadga yoʻnaltirilgan korreksion pedagogik ishning zaruriyati xususida xulosa qilish mumkin.

II-bob boʻyicha xulosa

Taʼkidlovchi tadqiqot maʼlumotlarining tahlili quyidagilarni aniqlash imkonini berdi:

1. Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalar eshituv nutqiy xotirasi normal rivojlanayotgan bolalar bilan solishtirganda sezilarli darajada past.

2. Maktabgacha yoshdagi nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarda verbal xotiraning yetarlicha rivojlanmaganligi ularda til va nutq imkoniyatlarining takomillashmaganligi bilan uzviy bogʻliq. Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarning xotirasi va bogʻlangan nutq sifatining shakllanganlik darajasi oʻrtasida murakkab oʻzaro bogʻliqlik mavjud.

3. Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarning xotira xususiyatlari neyrodinamik jarayonlarning yetarli emasligi bilan belgilanib, xotira faoliyatning inertligi,

nofaolligi; xotira faoliyatning zo‘riqligi, notekisligi, impulsivligi; xotira faoliyatni boshqarish va nazorat etishning buzilishida; og‘zaki materialni yodda olib qolish jarayonining yetarlicha samarali emasligida namoyon bo‘ladi.

4. Xotiraning aniqlangan kamchiliklari turli mezonlarga ko‘ra maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda mavjud nuqsonlar strukturasi ajralmas komponent hisoblanadi.

Og‘zaki materialni ehtiyoriy yodda olib qolishning aniqlangan individual o‘ziga xosliklarini nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan tashkil etiladigan korreksion-rivojlantiruvchi jarayon mazmunini qurish va ishlab chiqishda e‘tiborga olish lozim.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda xotira xususiyatlarini rivojlantirish nutq komponentlarini shakllantirish va rivojlantirishga doir logopedik ishlar bilan birgalikda amalga oshirilishi mazkur bolalarni savodni egallash, tovush analizi va sintezi malakalarini o‘zlashtirish, lug‘at boyligini kengaytirish, bolalar tomonidan boshlang‘ich o‘qish va yozish malakalarini egallash samaradorligiga va ularni maktab ta‘limiga tayyorlashga yordam beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan olib borilgan korreksion ta‘sirning umumiy tizimiga maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda mnestic jarayonlarni kompleks shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos ta‘lim modelini ishlab chiqish va joriy etish zaruriyatini ko‘rsatadi.

III Bob. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish

1. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish jarayonida shakllantirish metodikasi

Logopedik yordam tizimida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotirasini rivojlantirish bo'yicha korreksion ish 3 bosqichni o'z ichiga oladi: diagnostik, korreksion-rivojlantiruvchi, analitik (manitoring). Mzkur bosqichlar maktabgacha ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatuvchi logoped, psixolog va tarbiyachining o'zaro faoliyatini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarga psixologo-pedagogik yordam vazifalarini amalga oshirish – nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan ish olib boruvchi logoped hamda psixolog va tarbiyachi faoliyatiga psixologik jihatlarni kiritish yo'li bilan korreksion rivojlantiruvchi jarayon ishtirokchilarining vazifalarini kengaytirishni talab etadi.

Diagnostik bosqich. Ishining maqsadi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqi va bilish faoliyatini, va shu qatorda, sentabrning birinchi 2-3 haftalarida ishlab chiqilgan kompleks diagnostik metodikalar asosida amalga oshiriluvchi chuqurlashgan holda tekshirish hisoblanadi. Tarbiyachining roli eksperimental guruh bolalarining bilim, malaka va ko'nikmalarini o'rganishdan iborat bo'ladi. kompleksli psixologo-pedagogik tekshiruv natijalari individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar tizimi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Bu tizim strukturasida alohida yo'nalish sifatida bolalarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda eshituv-nutqiy xotirasini rivojlantirish ajralib turadi.

Korreksion-rivojlantiruvchi bosqich psixik jarayonlar va nutqni korreksiyalash va rivojlantirni individual va guruhli dasturini amalga oshirishni tahmin qilgan. Bu ishning muhim tashkil etuvchi qismi bo'lib, darajali tizim bo'yicha individual-differensiallashgan yondashuv doirasida qurilgan. Ajratilgan darajalar korreksion-rivojlantiruvchi jarayonning turli mutaxassis-ishtirokchilarini o'zaro faoliyati va tashkil etilishiga asos bo'lib qo'yilgan.

Nutqiy va mnestic faoliyatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro faoliyati va tashkil etilishda individual-differensiallashgan yondashuv.

Birinchi darajaga oid bo'lgan bolalar bilan ish natijalari korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim kompleksli tizimda eshituv-nutqi y xotirani rivojlantirish bo'yicha kuchaytirilgan va maqsadga yo'naltirilgan ishni taklif etgan. Logopedning vazifalariga bolalar bilan individual logopedik mashg'ulotlarni qamrab oluvchi eshituv-nutqiy xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan psixolog bilan maxsus batafsil mashg'ulotlar va didaktik o'yinlar kiradi. Psixologning vazifalariga bolalar bilan maxsus va individual mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan individual yondashuvni hisobga olgan holda didaktik materiallar, o'yinli mashg'ulotlar, mnemotexnik usullar diagnostikasi va saylovli tanlovlari kiradi. Tarbiyachining vazifalari kechki vaqtda bolalar bilan mashg'ulotlarda mahoratlarini mustahkamlashda psixolog va logoped tavsiyalarni hisobga olgan holda bolalarda o'qish va o'qishdan tashqari vaqtda mnestic xotira ni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Ikkinchi darajaga oid bo'lgan bolalar bilan ish natijalari bolalarda aniqlangan buzilishlar va ularning turli parametrlarini hisobga olgan holda eshituv-nutqiy xotirani rivojlantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ishni o'tkazishni tahmin qilgan. Logopedaning vazifalari individual logopedik mashg'ulotlar mazmuniga maxsus tanlangan nutqiy mashqlar va mnemotexnik usullarni kiritishdan iborat. Frontal mashg'ulotlarni o'tkazish spetsifikasi – bu kategoriya bolalariga munosabat bo'yicha psixik jarayonlarning maksimal aktivizatsiyasida bolalar faoliyatiga e'tibordan iborat. Psixologning vazifalarga logoped talabi bo'yicha bolalarda mnestic xotirani chuqur tekshirish; olingan natijalarni logoped bilan muhokama qilish va korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim strategiyasini ishlab chiqish; tibbiy mutaxassislar va neyropsixologning qo'shimcha konsultatsiyalarini olish zarurati haqida imkoniyatlarini muhokamasi; eshituv-nutqiy xotirasini aniqlangan xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantiruvchi ta'limning individual dasturini ishlab chiqish kiradi. Tarbiyachining vazifalariga logoped vazifalari bo'yicha bolalar bilan kechki mashg'ulotlarda nutqiy malakalarni

mustahkamlash va psixolog tavsiyalarini hisobga olgan holda bolalarni xotirasini rivojlantirish kiradi.

Uchinchi darajaga oid bo'lgan bolalar bilan ish natijalari eksperimental guruhdagi barcha bolalar uchun xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini amalga oshirish va tanlashni tahmin qilgan. Mazkur tashkillashtirilgan darajada logopedning vazifalariga bolalar bilan frontal mashg'ulotlarda eshituv-nutqiy xotirani rivojlantirish uchun adekvat nutqiy materialni tanlash kiradi. Logoped faoliyatining spetsifikasi shundan iboratki, mnestic xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus usullar logopedik ish usullari bilan bir-birini to'ldiradi. Psixologning vazifasiga – tarbiyachi va logoped mashg'ulotlarida foydalanishga tavsiya etilishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar va mashqlar bankini yaratish. Tarbiyachining vazifalariga kechki vaqtda guruh osti individual mashg'ulotlarda logoped vazifalari bo'yicha mashqlarni bajarish yo'li bilan bolalarda mnestic xotira va shakllangan malakalarni mustahkamlash kiradi.

Analitik bosqich (monitoring) kutilayotgan dinamikani yo'qligi yoki boshqa sabablarga ko'ra bolalar bilan ishda individual dasturga psixolog bilan bolani etapli tekshirish, korrekativ kiritish va logopedik ishning dinamik analizini ko'zda tutgan. Mnestic jarayonlarning aniqlangan spetsifik kamchiliklari (har xil eslab qolish turlari-regrediyent va prorediyent, eshituv-nutqiy xotira hajmini pasaytirishning turli darajalari, chiziqli xotira strukturasining buzilishlari va b.q.) hisobga olingan va eksperimental korreksion ta'limning asosiga individual va differensiallashgan yondashuv qo'yilgan.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarga mnestic xotira ni rivojlantirish bo'yicha pedagogik ish aprotatsiyasi mnestic xotira buzilishlarining (xotira hajmini pasayishi, eslab qolishni pasaygan dinamikasi, eslab qolganlarining aniqligini buzilishlari, mnestic faoliyat izlarini yuqori tormozlanishi, MF nazorati va regulyatsiyasi stabilligining yetishmasligi) bajarilgan umumiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda barcha bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir o'tkazish tavsiyalarini shakllantirishga yo'l qo'yadi.

1. Logoped o'tilgan materialni ko'p marotaba takrorlanishini takomillashtirishi zarur. Bu uni yanada mustahkam eslab qolishga yo'naltiradi. Tekshirishning boshidagi natijalarda nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar so'zli materialni uning xarakterli takrorlanishida yanada samarali eslab qolinishiga erishiladi.

2. Bir necha marta nutqiy vazifalarni takrorlashda turli didaktik materiallar bilan ta'minlanishi kerak.

3. Eslab qolishni sharoitlaridan biri – bilimlarni o'zlashtirish jarayonida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni yuqori faolligi. Tarbiyalanuvchilar fikrlash faoliyatining mustaqil imkoniyatlari bo'yicha faol hisoblanuvchi obyekt yaxshiroq esda qoladi.

4. Mustahkam eslab qolishda, turli ko'rinishdagi mahsuliy faoliyatlarda (rasm chizish, lepka, applikatsiya va b.q.) nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilimlarini amaliy ishlatishni tashkil etishga yo'naltiriladi. Mnestic xotira ni o'yinli mnemotexnik usullar va didaktik o'yinlardan foydalanish kerak.

5. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar tomonidan eslab qolinayotgan materialni qabul qilishda turli xotira ko'rinishlarini (ko'rish, eshitish, harakat, ushlab his qilish va b.q.) ishga solish orqali turli analizatorlarga tayanchni ta'minlash zarur.

6. Logoped yangi materialni tushuntirish va boshlang'ich mashqlar bo'yicha uni mustahkamlash o'rtasida katta vaqtli uzilishlar bo'lmasligi kerakligini; mustahkam eslab qolishning muhim sharti bo'lib, majburiy boshlang'ich taqdimot hisoblanishini; mnemotexnik usullarning ko'rgazmali tayanchlari yordamida va kattalar yordamida muddatdan keyingi mustahkamlashtirilgan taqdimot reminispensiya imkoniyatlaridan foydalanish shuningdek muhimligini esda tutishi kerak.

7. Logoped nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar leksik materiallarni eslab qolishini yanada mustahkam uchun ko'rgazmali, amaliy va so'zli o'qitish metodlari bilan birga olib borilishini ta'minlashi zarur. Ularga predmetni ko'satish yetarli emas, balki uning xususiyatlarini tasvirlash va o'rganilayotgan predmet

bilan turli harakatlar o'tkazishga imkon berish kerak. Bu amaliy yo'l bilan ajratilgan predmet xususiyatlarini bolalar nutqida asoslab berish lozim.

8. Mnestic xotira aktivizatsiyasi uchun xilma-xil didaktik o'yinlar, o'yinli mnemotexnik usullar va mnemotexnik fadvallardan foydalanish kerak.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan logopedik ishda mnemotexnik usullar va ulardan foydalanish

Eslab qolishning ko'pgina usullari mavjud. Har qanday materialni qismlar va guruhlariga bo'lish mumkin, masalan oddiy va murakkab so'zlar guruhi: tanish va notanish, va b.q. Bu usul guruhli bed ataladi. Materialni ma'lum bir asoslangan guruhlar – sinflarga bo'lish mumkin. Masalan, hayvonlar va o'simliklar, transport turlari va uy interyerining predmetlari, mebel va idish tovoqlar, unli va undosh tovushlar va boshqalarga ajratish mumkin. Bu usul klassifikatsiya deb ataladi. Bu holda eslab qolish talab etilgan materiallar nechta sinf yoki guruhlariga bo'lingan bo'lsa, xotiraga berilgan yuklamalar ham shuncha kamaytiriladi.

Adam psixologiyasi shunday tuzilganki, har qanday yangi ma'lumot qaysidir ma'noda endilikda ma'lumini tegib o'tadi ya'ni assotsiatsiya kelib chiqadi. Xotirani rivojlantirish maqsadida bu xususiyatlardan foydalanish uchun bolaga savol berish yetarli bo'ladi:

- Bu rasm senga nimani eslatayapdi, bu so'z?
- Bu raam nimaga o'xshaydi, dog'lar, tasvirlar?

Yangi ma'lumot har qanday narsa to'g'risida eslatishi mumkin. Bu bu bilimlari, malakasi, yoshi, intiluvchanligi, intellektual rivojlanish darajasi, aktual psixik holati va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bola aytayotgan assotsiatsiyalarni o'xshamasa, qoniqarli yoki qiyin bo'lgan holda ham u taklif qilganlarini rad etish, tanqid qilish va inkor qilish darkor bo'ladi.

Shakllantiruvchi eksperimentda ishtirok etgan barcha bolalar uchun assotsiativ og'zaki o'yinlar tanlangan bo'lib, ular uzoq muddatli xotiradan so'zlarni tanlab olishni faollashtirishga va bolalar lug'atini tizimlashga yo'naltirilgan. Bunday o'yinlar xotirani hamda nutqni rivojlantirish vazifalarini hal etishga imkon berdi. Bunday o'yinlarni logopedik amaliyotga kiritishning

dolzarbligi, lugʻatni toʻplashning oʻzi yetarli emasligini koʻrsatuvchi faoliyat sifatida qurilganligi haqidagi zamonaviy tasavvurlar bilan tushuntiriladi. Lugʻat ustidagi ish sohasidagi eng muhim muammo bolada mavjud semantik guruhlar boʻyicha soʻzlarni guruhlashdadir. Aynan maʼno va vaziyatli bogʻliqliklar boʻyicha xotirada lugʻatni toʻgʻri tashkil etish faol nutqda uning faol qoʻllanilishini taʼminlaydi.

Bu kabi mashqlar tizimi bolani qayta hikoyaga tayyorlaydi va “erkin” soʻzlar material singari, matndan tanlab olingan soʻzlarda ham oʻtkazilishi mumkin.

Bolalarga quyidagilarni aytish taklif etiladi:

- logoped tomonidan aytilayotgan soʻzga javoban har qanday soʻzni aytish – bu usul nafaqat uzoq muddatli xotirada saqlanadigan soʻzlarni faollashtirishga, balki soʻzlarni izlashning boshlangʻich qoidalarini shakllantirishga koʻmaklashadi;
- logoped tomonidan aytilgan soʻzga javoban qator soʻzlarni aytish – bolalar vaziyatli, yaʼni sintagmatik qoidalariga koʻra soʻzlarni muvaffaqiyatli guruhlaydilar. Buning natijasida soʻz birikmasi yoki gap hosil boʻladi;
- tematik bogʻliqlikka koʻra birlashgan soʻzlarni aytish;
- umumlashtiruvchi soʻzlar;
- bir leksik-grammatik guruhga oid soʻzlarni aytish;
- gapni yakunlash uchun soʻzlarni sheʼrli materiallarda bergan yaxshiroq;
- antonim soʻzlar va sinonim soʻzlar, alohida eʼtiborni feʼllarni izlashga qaratish kerak, chunki nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarning feʼllardan iborat lugʻat boyligi kambagʻal.

Qiyinchilik tugʻilgan holatlarda bolalarga rasmlarni yoki harakatlarni namoyish etish koʻrinishidagi yordam koʻrsatilishi mumkin. Har qanday maʼlumot hamisha yodda olib qolish uchun tayanch boʻlishi mumkin boʻlgan axborotni saqlaydi. Bu sana, odatdan tashqari soʻz birikmalari, tanish yoki notanish soʻzlar, voqealarning kutilmagan rivoji, metaforalar, ismlar, rasmlar, formulalar, sxemalar boʻlishi mumkin. Soʻzlarni yoki mantlarni eslab qolish uchun bir nechta tayanch vositalarni qoʻllash zarur. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu predmetli yoki syujetli rasmlar boʻlishi mumkin. Bu qaysidir maʼnoda yodga tushirish uchun reja

bo‘ladi. Qayta hikoyada xatolarning oldini olish uchun analogiya usulidan foydalanish mumkin. Bunda predmet, hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiylik o‘rnatiladi. Bunday usul nutq-tafakkur faoliyati rivojlanishining ma’lum bosqichida bola uchun tushunarli bo‘ladi. Yangi so‘zlarni ularni birlashtirgan, biron-bir bog‘lanishlarni o‘ylab topgan holda yodda olib qolish onsonroq. Bunday usul materialni qurib bitkazish deb nomlanadi.

Materialni strukturalash va tizimlash murakkab usullardan hisoblanadi. Strukturalash usuli yodda olib qolinayotgan ma’lumotning ichki shaklini, tuzilishini aniqlashni anglatadi. Tizimlash usuli material ichidagi aloqani o‘rnatishga qaratilgan bo‘lib, buning natijasida u butun sifatida idrok etiladi. Tizimlash va strukturalash usullari insonga har qanday ma’lumotlarni yaxshi yodda olib qolish, saqlash va taqdim etish imkonini beradi. Qayta kodlash usuli ma’lumotni obrazli shakldan verbal va noverbal shaklga aylantirishni bildiradi. Har qanday verbal ma’lumotni rasm ko‘rinishida, obrazlar ko‘rinishida taqdim etish mumkin. O‘z navbatida har qanday obrazli ma’lumotni so‘z bilan tasvirlash mumkin. Ketma-ketlikni o‘rnatish usuli – turli belgilarga ko‘ra predmet va hodisalar qatorini, ketma-ketligini qurishni anglatadi. Masalan, soddadan murakkabga, kichikdan kattaga, yengildan qiyinga va hakoza.

Qayta kodlash va ketma-ketlikni o‘rnatish usuli biz tomondan deyarli anglamagan holda qo‘llaniladi. Ular yuqorida sanab o‘tilgan barcha mnemik usullar bilan ajralmas birlikni tashkil etadi. Ularni ma’lumotlarni qayta ishlashning universal usullari deb nomlash mumkin.

Psixologik adabiyotlarda quyidagi mnemotexnik usullar ajratiladi: assotsiatsiyalar; guruhlash; tasniflash; analogiyalar; sxemalashtirish; strukturalash; tizimlash; mnemo reja; qayta kodlash; ketma-ketlikni o‘rnatish.

Mazkur usullar bolalar bilan olib borilgan korreksion ishlarda qo‘llanilgan.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar uchun yodda olib qolishning barcha usullari tushunarli emas. Shuning uchun xotirani rivojlantirish jarayoni – bir necha bosqichlardan iborat bo‘lgan uzoq muddatli jarayondir.

1. Birinchi bosqichda bola xotirasining boshlang'ich rivojlanish darajasini aniqlash kerak.

2. Bola usulning mazmunini bilishi, mazkur usulni yodda olib qolish uchun qo'llashni bilishi kerak. Masalan, materialni qismlarga bo'lish nima ekanligi, buni qanday amalga oshirish mumkinligini, materialni qismlarga bo'lib yodda olib qolish onsonroq ekanligini bilishi kerak.

3. Bolani aniq ma'lumotni eslab qolish va taqdim etishning u yoki bu usullarini qo'llashga o'rgatish.

Doimiy mashqlar xotira imkoniyatlaridan maksimal foydalanish imkonini beradi. Korreksion ish mnestik xotirani rivojlantirish yo'llarini tinmay izlashni nazarda tutadi.

Boshqa psixik jarayonlarni amalga oshirilishidagi xotiraning integrativ roli shundan iboratki, ko'pgina korreksion-rivojlantiruvchi mashqlar va didaktik o'yinlar xotirani rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar mnestik xotirasining inertligi, mnestik faoliyatning nafaolligi (perseveratsiya, kontaminatsiya, proaktiv tormozlanish) zo'riqqanligi, bir maromda emasligi, mnestik faoliyatning impulsivligi; mnestik faoliyatni boshqarish va nazorat etishning buzilganligi (zo'riqish miqdoriga ko'ra xatolar sonining ortishi) singari sifat xususiyatlarini hisobga olgan holda eshituv nutqiy va ko'ruv xotirasining hajmi va mustahkamligini oshirishga maxsus yo'naltirilgan mashg'ulotlarga didaktik o'yinlarni qo'shish zarur.

Bir nechta misollar keltiramiz.

“Shakllar” o'yini.

a) Maqsad – semantik ifodalash yordamida ko'ruv xotirasining hajmini kengaytirish.

Qo'laniladigan material: qog'oz varoqlari va sanoq cho'plari.

Pedagog boladan ko'zini yumishini so'raydi va cho'plardan shakl hosil qiladi, so'ng 30 soniya davomida uni bolaga ko'rsatadi, shundan so'ng uni ro'molcha bilan yopadi va bolaga qog'oz varog'ining ustida shaklni yasashni so'raydi, so'ngra natija bilan namuna solishtiriladi.

b) Maqsad – eshituv nutqiy xotiraning hajmini ko‘paytirish.

Pedagog so‘zlarni talaffuz qiladi (3 so‘zdan 5 so‘zgacha), bola esa cho‘plardan aytilgan predmetni eslatuvchi shaklni yasaydi. Masalan: archa-uchburchak, kitob-to‘g‘riburchak, bolg‘acha-t harfini eslatuvchi shakl.

“Kvartira” o‘yini.

Maqsad – og‘zaki materialni mantiqiy va polisensor ifodalamoq.

Material: qo‘g‘irchoq xonasining maketi va o‘yinchoq mebel jihozlari.

a) Pedagog mebel jihozlarini aytadi, bola so‘zlarni eslab qolishi va mebel jihozlarini o‘z joyiga qo‘yishi kerak.

b) Bolaga bir nechta geometrik shakllar beriladi va qaysi shakl qanday mebel jihozini bildirishi haqida oldindan kelishib olinadi. Bundan so‘ng pedagog so‘zlarni aytadi, bola esa qog‘oz varog‘iga shakllarni joylashtirib, “mebellarni qo‘yib chiqadi”.

Vazifa bajarib bo‘lingach, bola so‘zlarni qayta takrorlashi muhim bo‘lib, shuningdek ularni 30 daqiqadan so‘ng qaytarish taklif etiladi.

Maktabgacha yoshda bola o‘zining aqliy faolligini boshqarishdan ko‘ra tashqi stimullar va tashqi regulyatorlarga ko‘proq quloq soladi. Intellektual faollikning ichki boshqaruv mexanizmlarini – o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish zarur. Eslab qolish va qayta takrorlash jarayonlarini boshqarish qobiliyatlarini eslab qolinayotgan axborotni qayta ishlashni boshqarish deb ta’riflash mumkin. Xotirani boshqarish asosida analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiya singari aqliy operatsiyalar yotadi. Xotirani fikrlash operatsiyalari va nutq nisbatan rivojlangan holatda mnestik jarayonlar tizimida eslab qolinayotgan ma’lumotlarni qayta ishlash usullari paydo bo‘lgan hollarda boshqarish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, eslab qolish maqsadida materialni qayta ishlashning mazkur yo‘llari va usullari avval tashqi va undan so‘ng esa ichki tomondan amalga oshirilishi kerak.

Demak, eslab qolinayotgan materialni qayta ishlash usullarining mavjudligi, bolaning xotirasini boshqarish qobiliyatining asosini tashkil etadi. Biroq, eslab qolinayotgan materialni qayta ishlash usullari ishga tushirish mexanizmiga muhtoj

bo‘ladi. Xotira jarayonlarini boshqarish uchun taxminan bunday funksiyani quyidagi harakatlar bajaradi: maqsad qo‘yish mahorati; harakatlarni rejalashtirish mahorati; qaror qabul qilish mahorati; eslab qolish va qayta takrorlash jarayonini nazorat qilish mahorati; olingan natijani baholash mahorati; kelgusida bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni oldindan ko‘ra bilish mahorati.

Mazkur harakatlar o‘zaro birlikda xotiraning boshqaruvchilik mexanizmlarini tashkil etadi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan, ko‘pincha bu rejalashtirilgan nutqning boshqaruvchi, rejalashtiruvchi funksiyasining rivojlanmaganligi natijasida kuzatiladi. Amaliy, produktiv va tajriba-sinov tayanch faoliyati o‘z-o‘zini boshqarish samaradorligini oshiruvchi sharoitni ta’minlaydi.

Biz nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar xotirasini rivojlantirish maqsadida logopedik mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ba’zi o‘yin va mashqlarni tanlab oldik. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda o‘z o‘zini boshqarish qobiliyati ko‘pincha nutqning boshqaruvchi, rejalashtiruvchi funksiyasining rivojlanmaganligi bois, yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi.

Bola nutqi va xotirasini rivojlantirish uchun predmet-amaliy faoliyatni og‘zaki ifodalashning ahamiyati. Amaliy faoliyatni og‘zaki ifodalashning roli ko‘pgina tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan (L.S.Vigotskiy, N.I.Jinkin, R.YE.Levina, V.I.Lubovskiy, A.R.Luriya, D.B.Elkonin). Ularda idrok, diqqat, xotira va umumlashtirish jarayoniga og‘zaki ifodalashning ijobiy ta’siri o‘rnatilgan.

YE.O.Smirnova nutqning ahamiyatini bola tomonidan o‘z faoliyatini rejalashtirish vositasi sifatida ta’kidlaydi. Ko‘pgina tadqiqotlarda faoliyatni boshqarishda rejalashtirishning roli ko‘rsatiladi.

V.I.Lubovskiy tadqiqotlarida rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarda harakatlarni og‘zaki boshqarishning yetarli emasligi (sustligi) ko‘rsatiladi. Bolalar uchun bajarilishi kutilayotgan harakatlarni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar xarakterlidir. Bolalarga ko‘rsatmaga ko‘ra harakatlarni bajargandan ko‘ra bajarilgan ishlar haqida verbal hisob berish qiyinroq. Verbal hisobotlar uchun og‘zaki ta’riflashning aniq emasligi, aniqlashtirishning differentsiallanmaganligi

xos. Ular vazifalarni oxirigacha eshitmaydilar va darhol uni bajarishga kirishib ketadilar, namunaga e'tiborsizlik bilan qaraydilar, ko'p bosqichli tushuntirish va ko'rsatmalarni eslab qolmaydilar, o'z-o'zini tekshirishga bo'lgan ehtiyoj kuzatilmaydi, faoliyat jarayonida hamda uning yakunida o'z-o'zini boshqarish malakalari rivojlanishining quyi darajasi kuzatiladi. Bolada topshiriqqa bo'lgan bevosita qiziqish tez so'nadi. Faoliyat davomida yetarlicha faollik namoyon bo'lmaydi, shaxsiy natijalarni yaxshilashga bo'lgan intilish bo'lmaydi. Yo'l qo'yilgan xatoliklarga bolalar u yoki bu darajada befarq qaraydilar, ularni sezmaydilar, sabablarini tushunishga faol istak bildirmaydilar. Bolalar impulsiv, noratsional harakat qiladilar. Faoliyat jarayonida bolalarning shaxsiy sifatlarga ko'ra individual farqlari aniqlanadi. Barcha sanab o'tilgan xususiyatlar ma'lumotlarni yodda olib qolish va taqdim etish jarayoniga ta'sir etadi.

Maxsus tashkil etilgan predmet-amaliy faoliyat bolalar nutqini normallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida guvohlik qiluvchi tadqiqotlar mavjud (T.A.Matrosova, S.A.Mironova, N.A.Chevelova).

Afsuski, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar korreksion ta'limi va tarbiyasi tizimida faoliyatning produktiv turlari kam qo'llaniladi. Bu bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatini chegaralaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqining leksik-grammatik qurilishini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida biz tomondan predmet-amaliy faoliyat tanlandi, bunda predmetlar o'rtasidagi bog'lanish va aloqalarni bolalar analiz, taqqoslash, ahamiyatli aloqalarni aniqlash yo'li bilan "ochishgan".

Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan bolalarning predmet-amaliy faoliyati o'quv jarayonini faollashtirishning va shu orqali mnestic jarayonlarni rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Predmetli faoliyatga tayanib o'qitishda so'z bolaning faoliyatini tashkil etuvchi vositaga aylanadi. Bolalarni shaxsiy harakatlarini nutq bilan ifodalashga, bajarilgan ish natijalarini chiqarish, kechroq bosqichlarda esa o'zi va boshqalar uchun ko'rsatmalarni tuzishga o'rgatish muhimdir.

Hikoya qilishga o'qitishda dastlab pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan mnemojadvallardan foydalanish, keyingi bosqichlarda esa ularni bolalar bilan birgalikda chizish mumkin.

Rivojlanishdagi muhim rolni kattalarga amaliy harakatlarni namoyish etish, bola va kattalarning hamkorlikdagi amaliy faoliyati va nihoyat u yoki bu hayotiy vaziyat bilan bolaning mustaqil amaliy harakatlari o'ynaydi.

Bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etib, ijtimoiy xulqning turli shakllarini va bayon turlarini talab etuvchi muloqot vaziyatini modellashtiradi va tashkil etadi.

Shu tariqa korreksion ishda didaktik o'yinlar va nutqiy mashqlar bilan bir qatorda predmet-amaliy faoliyatni qo'llagan holda leksik va ko'rgazmali materialni samarali shakllantirish, rivojlantirish va kelajakda yodda olib qolish ko'nikmasini takomillashtirish mumkin.

Bola faoliyat ko'rsatadigan va u tomonidan produktiv faoliyat natijasida yaratiladigan barcha predmetlar xotira va nutqiy mashqlar uchun ko'rgazmali tayanch rolini bajaradi. Mnemojadval yodda olib qolish va gap yoki hikoyani qurilishini ko'rgazmali-grafik rejasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuni ham unitish kerak emaski, predmet-amaliy faoliyatda bola bir vaqtning o'zida bir necha analizatorlarga (ko'ruv, eshituv, teri-taktil) tayanadi, bu esa nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni nutqiy xotirasini shakllantirish

Shakllantiruvchi eksperiment bosqichida bolalar 2 guruhga ajratildi: tajriba guruhi (25 bola) va nazorat guruhi (25 bola). Nutqiy rivojlanish va mnestik faoliyat o'ziga xosliklariga ko'ra guruhlar bir xil bo'ldi. Guruhlarga ta'kidlovchi eksperimentda barcha ajratib ko'rsatilgan darajadagi bolalar kiritildi. Tajriba guruhidagi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan eshituv-nutqiy xotirani rivojlantirishga qaratilgan maxsus korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borilgan. Nazorat guruhidagi bolalar odatiy logopedik ishning an'anaviy tizimi asosida shug'ullanganlar. Shakllantiruvchi eksperiment 2013-2014 yillar mobaynida

Toshkent shahar Chilonzor tumani Xalq ta'limi muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi "Marvarid" nomli 368-maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazildi.

Ta'kidlovchi eksperiment natijalariga muvofiq tajriba guruhi uchun leksik-grammatik kategoriyalarni shakllantirish jarayonida til komponentlarini rivojlantirish bilan o'zaro bog'liq mnestic xotirani takomillashtirishni nazarda tutuvchi logopedik ish metodikasi ishlab chiqildi. Korreksion ta'lim vazifalarini amalga oshirish o'qituvchi-logoped, psixolog va tarbiyachining birgalikdagi hamkorligini nazarda tutildi.

